O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI
“PEDAGOGIKA” KAFEDRASI

*Qo’lyozma huquqida*

*UDK 371.008*

**MAHMUDOV JASUR Yusupovichning**

# BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

**5 A 110901 - PEDAGOGIKA TA’LIM YO’NALISHI**

**MAGISTR**
**akademik darajasini olish uchun yozilgan**
**DISSERTASIYA**

Ish ko’rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi. ___________
«Pedagogika» kafedrasi mudiri
prof. K.Hasanova ________

Ilmiy rahbar:
dots. Abdumannotov A. ______

M.O’.

**SAMARQAND-2013**

MUNDARIJA


KIRISH………........................................................................................ 3

**I. BOB. BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY - NAZARIY ASOSLARI……………………………………………………….** 9

1.1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish pedagogik muammo sifatida..……..……...................................... 9

1.2.Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida madaniy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda sharq mutafakkirlarining fikrlari................................................ 18

1.3.Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning hozirgi holati va imkoniyatlari............................................ 26

**II. BOB. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI…..............................................** 37

2.1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda dars mashg'ulotlarining o'rni................................................. 37

2.2. Auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shaklantirishning yo'llari……. 50

2.3. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari.................................. 57

**III. BOB. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHGA OID O'TKAZILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARINING TAHLILI VA SAMARADORLIGI..........................................................................................** 69

3.1. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uni o'tkazish metodikasi ................. 69

3.2. Tajriba-sinov ishlarining natijalari va tahlili............................................... 73

XULOSA VA TAVSIYALAR……………….................................................... 79

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati..................................................................... 81

Ilovalar ............................................................................................................... 84

# KIRISH

**Muammoning dolzarbligi**. Mamlakatimiz kelajagi ko’p jihatdan barkamol avlodni shakllantirishga bog’liq. Bu jarayon ta’lim-tarbiya ishlarini qanday yo’lga qo’yishimizga bog’liq. Shu bois, Respublikamizda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda ta’limni isloh qilish borasidagi boshqa me’yoriy hujjatlarda ta’lim tizimini isloh qilish va shu asosida jismonan sog’lom, ma’naviy yetuk,, salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish zarurligi alohida takidlangan.

Ushbu fikrimizni 2012 yil fevral oyida yurtboshimizning tashabbusi bilan tashkil etilgan “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash va mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyani qayd etish mumkin. Mazkur konferensiyada Prezidentimiz “Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlat qurish yo’liga qadam qo’yib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o’tishni ta’minlar ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg’unligi zaruriyatini teran anglaydigan zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg’or texnologiyalarni egallagan insonlargina o’z oldimizga qo’ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishish mumkin ekanini hamisha o’zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz”, - degan edi.

Erkin va mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodkor, milliy mafkuramizga sadoqatli bo’lgan intellektual salohiyatli barkamol shaxsni shakllantirish, fan texnika va texnologiyalarning so’nggi yutuqlaridan ta’lim-tarbiyada sohasida keng foydalanishni taqozo qiladi. Bu bilan jahon andozalari talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayrlashga erishiladi.

Yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo’lgan mutaxassislarni tayyorlash borasidagi izlanishlar shuni ko’rsatmoqdaki, ilmiy dunyoqarashi keng, intellektual salohiyatli bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlash, ularda ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimi oldidagi muammolardan biri ekan.

Shu kungacha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash va uni mazmun-mohiyatini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish masalasi yetarlicha ishlanmagan. Bu jarayon qo'yilgan vazifani takomillashtirishni talab qiladi. Shu bois, magistrlik dissertasiyamiz mavzusini "**Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shaklantirish**" tarzida tanladik.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi**: bo'lajak o'qituvchilarni, jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash muammosi ularda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shaklantirish bilan bog'liq. Sababi, hozirgi davrda o'zida yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchigina shogirdarida (o'quvchilarda, talabalarda) ma'naviy xislatlarni shakllantira oladi.

Shaxsda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish qomusiy olimlarni xizmatlari katta, jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar o'z asarlarida o'qituvchilik kasbi va unga qo'yiladigan talablarni yetarlicha yoritishgan.

Uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilardan ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish muammolari R.Aminova, E.Jumayev, B.Jo'rayev, V.Karimova, U.Mahkamov, M.Mahmudov, N.Sulaymonov, N.Ortiqov, O.Rajabova, B.Rahimov, H.illashev, E.Turdiqulov, M.Qodirova, O.HAsanboyev va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Shuningdek, pedagog olimlardan O.Musurmonova, M.Ochilov, R.Mavlonova, M.Quronov, M.Inomova, S.Nishonova, R.Safarova, B.Azizovlar boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirishning turli jihatlarni tadqiq etishgan.

Yuqorida nomlari qayd etilgan pedagog mutaxassis olimarning ilmiy izlanishari natijalari ta'lim-tarbiya jarayolarini olib borishning bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning optimal variantlarini yaratishga muhim didaktik asos bo'la oladi. Biroq, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish muammosi o'zining mukammal ilmiy yechimini topmagan.

**Dissertasiya ishining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi**: dissertasiya ishini O'zbekiston Resrublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosiy yo'nalishlarida belgilab berilgan. Pedagogika kafedrasining "Yosh avlodni ma'naviy-axloqi tarbiyalashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari" bosh mavzusi asosida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqi madaniyatni shakllantirishga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga oid ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlarni o'rganish, tahlil qilish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllanganligini asoslash;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda sharq mutafakkirlarining fikrlarini o'rganish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning hozirgi holati va imkoniyatlarini o'rganish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda dars mashg'ulotlarining o'rnini yoritish;
- auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish yo'llarini ishlab chiqish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning samaradorlik darajasini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti:** oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshang'ich sinf o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning mazmuni, shakl va metodlari.

**Tadqiqot metodlari:** ilmiy-tadqiqot ishiga oid ilmiy ishlar va adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatish, anketi, savol-javob, suhbat, pedagogik eksperiment, pedagogik tajriba-sinov ishlarini matematik-statistik tahlil qilish.

**Tadqiqotning imiy farazi, agarda:**

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga oid ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlar o'rganilsa, tahlil qilinsa;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllanganligi aniqlansa;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning hozirgi holati va imkoniyatlari tadqiq etilsa;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda dars mashg'ulotlarining o'rni yoritilsa;
- auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish yo'llari ishlab chiqilsa;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning samaradorlik darajasi aniqlansa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni samarali bo'ladi.

**Tadqiqotning metodologik asosini:** O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning nutqlari, asarlarida bobi qilingan o'qituvchilar, ularni kasbiy faoliyatiga tayyorlashni takomillashtirishni, oliy ta'limni takomillashtirish haqidagi fikrlari; "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni; "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"; "Oliy ta'lim konsepsiyasi", "Pedagogik ta'lim konsepsiyasi", mutafakkirlarning o'qituvchilar haqidagi fikrlari, mavzuga oid pedagogik-psixologik manbalar.

**Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari:** tadqiqot ishlari to'rtta bosqichda amalga oshiriladi:

**1-bosqich.** Tashxis va bashorat qilish bosqichi (2011 sentyabr - dekabr). Shbu bosqichda tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, predmeti, obyekti aniqlandi, tadqiqot rejasi tuzildi, tajriba-sinov maydonlari aniqlab olindi;

**2-bosqich.** Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (2012 yanvar-may). Tadqiqot muammosining ilmiy-nazariy, ilmiy-uslbiy asoslari o'rganildi, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish tajribalari tahlil qilindi. Tadqiqot yuzasidan olib borilgan adabiyotlar tahlili bo'yicha kuzatishlar va suhbatlar natijalari asosida tadqiqot muammosining ilmiy farazi, metodologiyasi aniqlab olindi. Tajriba-sinov ishlari bilan bog'liq bo'lgan holatlar o'rganildi va uni o'tkazish metodlari ishlab chiqildi;

**3-bosqich.** Ta'limiy shakllantiruvchi bosqich (2012 iyun-dekabr). Tadqiqot maqsadi va vazifalariga oid muammolar bo'yicha SamDU pedagogika fakulteti talabalari bilan test, anketa so'rovlari, suhbatlar, kuzatishlar o'tkazildi.

**4-bosqich.** Umumlashtiruvchi yakuniy bosqich (2013 yil yanvar-iyun). Bunda talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning nazariy, pedagogik, ilmiy-uslubiy sharoitlari ishlab chiqildi va asoslandi. Tadqiqot natijalari amaliyotda sinab ko'rilishi natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:**

♦ bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish pedagogik muammo ekanligi;

♦ bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda sharq mutafakkirlarining fikrlari;

♦ bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning hozirgi holati va imkoniyatlari;

♦ bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda dars mashg'ulotlarining o'rni;

♦ auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishni yo'llari;

♦ bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning samaradorlik darajasi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

▸ bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning nazariy va pedagogik asoslarini aniqlanganligi;

▸ talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatini shaklantirishning metodologik asoslari va pedagogik shart-sharoitlarining belgilanganligi;

▸ talabalar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning uslubiy jihatdan asoslanganligi va metodik ta'limoti yaratilganligi;

▸ talabalar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning samaradorlik darajasi aniqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy, metodologik asoslarini ifodalovchi jihatlar aniqlandi.

Talabalar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga oid tizim yaratildi. Undan "Pedagogika nazariyasi", "Pedagogika tarixi", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanlari va kurslarini o'qitishda foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar tayyorlandi.

**Magistrlik dissertasiyasining tuzilishi va hajmi**: dissertasiya kirish, uch bob, 8 fasl, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

# I. BOB. BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY - NAZARIY ASOSLARI

## 1.1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish pedagogik muammo sifatida

O'zbekiston mustaqilligi tufayli taraqqiyotning barcha sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar bo'lg'usi fuqarolarni turli xil fazilatlarga ega bo'lish zarurligini taqozo etmoqda. Bozor iqtisodiyoti davrida yuz berayotgan tezkor o'zgarishlarga mos holda egiluvchan, moslanuvchan, shaxsiy fazilatlar hamda kasbiy xislatlar shakllangan bo'lmog'i lozim. Bo'lg'usi shaxslarda bu xislatlarni shakllantirishda o'qituvchi muhim o'rin tutadi.

O'qituvchining o'zi yangilangan sifatlarga ega bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni qabul qilishda Oliy Majlisning birinchi chaqiriq IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust)da so'zlagan "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli nutqida ta'kidlaganidek, "Mening fikrimcha, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo mana shu yerda. O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Avvalo, bilim berish uchun avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak"[1].

Demak, jamiyat uchun zaruriy xislatlarga ega bo'lgan shaxslarni yetishtirib berishda yetakchilik qiladigan o'qituvchining o'zi ham zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi, muhim xislatlarni mujassamlashtirgan kishi bo'lmog'i lozim. Ana shundagina o'zi yashayotgan jamiyatning ajralmas qismi bo'lgan o'qituvchi – murabbiy yoshlarga zamonaviy bilimlar bera oladi, ularni yangi davr kishilari etib tarbiyalay oladi.

O'qituvchi o'zi yashayotgan jamiyatda faoliyat ko'rsatar ekan, bu faoliyat natijasida jamiyat manfaatlarini himoya qiladigan fuqarolarni shakllantiradi va mazkur fuqarolar tez orada ana shu jamiyatda yashay boshlaydi. Demak, o'qituvchi-

---

[1] Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: "O'zbekiston", 1997. 63 b.

murabbiy mehnati qaysidir bir ma’noda, jamiyatning o’zini shakllantirib beradi. O’qituvchilik mehnatining ahamiyati shunchalik ulug’vorki, o’zi yashayotgan davlat tuzumining asosini ham, uning mehnat mahsuli bo’lgan, shaxslarda shakllangan fazilatlar majmuasi faoliyat natijalari sifatida belgilaydi.

Bu to’g’risida buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy ta’lim-tarbiya ishining muhimligi, ulug’vorligini ishonarli tarzda ta’riflaydi, o’zining umrini yoshlar tarbiyasiga bag’ishlaydi. U ta’lim-tarbiya ishini tashkil etishni ma’lum tizimga soladi, sinf-dars jarayonining asl mohiyatini, maqsadi va vazifalarini ochib beradi.

Ta’lim-tarbiya tizimida o’qituvchi-murabbiy muhim o’rin tutadi. O’quv-tarbiyaviy jarayonning barcha bosqichlarini amalga oshirishda o’qituvchi asosiy ijrochilik vazifasini bajaradi. Shu bois, uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish natijasida, yoshlarni mustaqil hayotga yo’llanma olishlarida, yoshlar taqdirini hal qilish orqali davlat rivojlanish taraqqiyotini belgilaydi, avvalo, o’qituvchilarni o’zlarini tarbiyalab yetishtirish, ularning bilim, malaka, ko’nikmalarini, shaxsiy fazilatlarini hozirgi davr ruhiga moslashtirish muhim ahamiyatga egadir.

O’qituvchi-murabbiylarni tayyorlash ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy tomonlaridan birini tashkil qiladi. Isloh to’g’risidagi chiqarilayotgn har bir qonun, qaror, farmon va ko’rsatmalarning so’nggi ijrosini, amalga oshiruvchisi bu o’qituvchidir. Ta’lim tizimini isloh qilishda ishtirok etayotgan fidoyi o’qituvchi shu tizimning bir bo’lagi sifatida o’zining kasbiy, shaxsiy, insoniy xislatlarini ham o’zgartirib, zamon ruhiyotiga moslashtirib boradi.

O’qituvchi-murabbiyning jamiyatdagi mavqyeini belgilashda uning bilimi, mahorati, saviyasi muhim omillardan sanaladi.

Respublikamizda o’qituvchi-murabbiylar muammosining hal etilishini o’rgangan tadqiqotchi G.Isayeva quyidagi fikr-mulohazalarni bildirgan:

1. Har qanday davlatning asosini, jumladan mustaqil O’zbekiston Respublikasining rivojlanish taraqqiyotini ham yoshlarning ta’lim-tarbiyasi belgilaydi. Yoshlarning barkamol fazilatlariga ega insonlar bo’lib yetishishida ta’lim-tarbiya tizimining barpo qilinishi hal qilinuvchi omildir.

2. O'qituvchi o'quvchilarga zamonaviy bilim berish uchun avvalo, o'qituvchining o'zi shunday bilimga ega bo'lishi lozim.

3. Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimida asosiy ijrochilik, yetakchilik vazifasini o'qituvchi-murabbiylar o'taydi. Yoshlar kamol toptirish darajasi ko'pinchi o'qituvchi-murabbiy shaxsining shakllanganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

4. Pedagogik faoliyatida o'qituvchi-murabbiy shaxsining barkamolligi jarayoni samaradorligini belgilaydigan asosiy omillardan hisoblanadi.

Sababi, o'qituvchi-murabbiyning kasbiy faoliyatining samarali natijalarga erishishida uning shaxsining axloqiy-ma'naviy fazilatlarining shakllanishi asosiy omillaridan hisoblanishi, avvalo shaxsiy namuna ko'rsatmalari orqali o'zi tarbiyalayotgan o'quvchilarni da'vat etish hisoblanadi. Aniqrog'i, o'qituvchi-murabbiyning xislat va fazilatlari o'quvchilar uchun namunaviy manba vazifasini bajaradi[2].

Xalq ta'limi tizimida hal qiluvchi inson o'qituvchidir. Agar o'qituvchi ijodkor va izlanuvchan bo'lsa, o'quvchining bilim darajasi ham baland bo'ladi. O'qituvchilarimiz bugunga zamon talablariga mos bilimlar sohibi intilgan ta'lim mazmunini egallagan bo'lishlari kerak. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega"[3], - deb ko'rsatilgan.

Muhtaram yurtboshimiz I.A.Karimovning "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risidagi farmonida 1997 yildan boshlab 1-oktyabr – "O'qituvchi va murabbiylar kuni" deb e'lon qilinishi hukumatimizning o'qituvchilarga bo'lgan yana bir g'amxo'rligidan dalolat beradi. Yosh avlodni buyuk an'analarimizga, yuksak ma'naviy qadriyatlarimizga sodiq va porloq kelajak g'oyalari ekanliklariga qat'iy ishonch ruhida tarbiyalash bevosita o'qituvchining zimmasiga yuklanadi. Buning uchun, avvalo o'qituvchining o'zi ma'naviy barkamol bilimli, odobli bo'lishi kerak.

---

[2] Isayeva G. O'qituvchi-murabbiyning jamiyatdagi o'rni. //Xalq ta'limi. 2003. 5-son. 58-61 bet.
[3] "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. 5-modda.

O’qituvchi odobi muallimning o’quvchilar, pedagoglar jamoasi, ota-onalar va jamoatchilik vakillari bilan muomala munosabatida namoyon bo’ladigan professional axloqiy xususiyatdir. Insonparvarlik, Vatanga sodiqlik, fuqarolik burchi va mas’uliyatni anglash, adolatlilik, vijdonlilik, halollilik, yaxshilik qilish kabi umuminsoniy va milliy-axloqiy tushunchalar o’qituvchi odobiga pedagogik faoliyat ta’lim-tarbiya ishlari bilan birlikda talqin etiladi, o’qituvchining professional axloqiy sifatlari, fazilatlarini belgilaydi. Shuning uchun ham bo’lajak o’qituvchi pedagogik odobga doir tushunchalar, bilimlarni, pedagogik odobning talab qoidalarini egallab olishi lozim.

O’qituvchilik kasbini sevish pedagogik odobning zarur talablardan biri hisoblanadi. O’z kasbini sevgan kishigina butun kuch-qudratini, kuch-g’ayratini, qalb-qo’ri va dil haroratini bu ishga bag’ishlaydi va o’z faoliyatida yaxshi natijalarga erishadi. Shuningdek, bolalarni sevish, ularga mehr-muhabbatli bo’lish o’qituvchilik kasbi, o’qituvchi axloqiy qayofasida muhim ahamiyat kasb etadi. O’qituvchining bolalarga bo’lgan mehribonligi talabchanlik va qattiqqo’llikni ham taqozo qiladi.

O’zi dars beradigan fanni, uni o’qitish metodikasini, pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarini chuqur egallash, yuksak ma’naviy, madaniyatli bo’lish o’qituvchi odobining qonuniy talablaridandir. Muallimning bilimdon bo’lishi, ma’naviy barkamolligi o’quvchi shaxsining shakllanishiga ijobiy, axloqiy ta’sir o’tkazadi. “Qadimgi ajdodlarimiz, -degan edi davlatimiz rahbari I.A.Karimov O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma’ruzasida, -komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini. Zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo’lishi kerak”. O’qituvchi halollik, rostgo’ylik, axloqiy poklik, odamiylik, kamtarlik kabi fazilatlarga ega bo’lishi pedagogik odobning muhim talab qoidasidir. Bu sifatlar o’zaro bog’liq bo’lib, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Jumladan, halollik muallimning ichki va tashqi dunyosi birligini, so’zi bilan ishi bir-biriga to’g’ri kelishini, o’quvchilarga, ota-onalarga, kasbdoshlarga samimiy munosabatni ko’rsatadi. Halollik, to’g’rilikka,

rostgo'ylikka, o'quvchilarga bo'lgan ishonchni, samimiylikni taqozo qiladi. Halol va rostgo'y odam oddiy va kamtar bo'ladi. Bu fazilatlar axloqli kishi sifatida o'quvchining obro'sini oshiradi. Va aksincha muallimning ikkiyuzlamachiligi soxta, xatti harakatlari bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston davlati, o'zbek xalqi jamiyat oldidagi burchni yuksak darajada anglash o'qituvchi odobining porlovchi qoidasi hisoblanadi. Fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy faollik o'qituvchi shaxsiga xos sifatdir. Muallim bolalarga o'rgatadigan g'oyalar uning o'z qalbidan joy olishi, dunyoqarashining asosi, shaxsiy e'tiqodiga aylanishi zarur. Shundagina muallim hayotda faol bo'lib, o'quvchilarga ibrat, namuna bo'la oladi. Axloqiy e'tiqod o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida o'quvchilar va boshqa kishilar bilan munosabatida, muomalasida, kundalik turmushida o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi odobining talab qoidalaridagi yana biri u o'z kuchiga, o'zi bajargan ishining to'g'ri, foydali ekanligiga, tarbiyalanuvchilarning qobiliyati va kelajagiga ishonch bilan qarashdir. Bola o'sib, ulg'ayib, kelajakda yaxshi odam bo'lishiga ishonish, muomala munosabatlarida adolatli bo'lishga ishonish, muomala munosabatlarida adolatli bo'lishi, bola ishonchini qozonish demakdir. Ishonish va adolatli bo'lish uchun esa bola ma'naviy dunyosining eng nozik va ko'z ilg'amas tomonlarigacha bilishi kerak. O'qituvchi muomalasida ko'tarinki ruh va yaxshi kayfiyatga ega bo'lsagina ishida duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni oson bartaraf etadi.

O'qituvchi odobida yaxshilik tushunchasi o'qituvchi jamoasi manfaatlarining birligi, muallim va o'qituvchi maqsadining birligi ta'lim va tarbiyaning samarasi uchun kurashishning birligi aks etadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Inson dunyoga yaxshi ish qilish, yaxshi iz qoldirish uchun keladi, yaxshi farzandlarni tarbiyalab qilgan yaxshi ishlari va qoldirgan yaxshi munosib vorislar tayyorlaydi"[4].

Yaxshilik fazilatga ikkala tomonning ham yaxshi niyatli xayrixoh, mehribon bo'lishini taqozo qiladi. Yaxshilik qaror topishi uchun yomonlikka murosasiz bo'lishi, yaxshi istak xohosh bilan xushmuomala, yaxshi qiliq, yaxshi xatti-harakatlarning birligi zarur.

Shaxs axloqini xarakterlaydigan belgilardan biri mas'uliyatdir. O'qituvchining mas'uliyati – mas'uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati, ta'lim-tarbiya jarayoni, uning vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi zimmasiga bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish mas'uliyati yuklanadi.

Muallim sinfda jamiyatning vakili sifatida o'quvchilar bilan yolg'iz ish olib boradi. Bunday sharoitda o'qituvchining mas'uliyati uning xulqini tartibga solib turadigan, boshqaradigan kuch, o'quvchilarga ta'sir o'tkazish darajasining asosiy mezoni hisoblanadi. Kelajak umidi, insonning nur diydasi – farzandining taqdiri, istiqboli uning qo'liga ishonib topshirilgan. Yaxshilik, adolat, sha'n, qadr-qimmat, insoniylik kabilarning mavjudligiga bolada ishonchni vujudga keltirish ham o'qituvchining mas'uliyatiga bog'liq. Yaxshi o'qituvchi bo'lishi uchun bo'lajak muallim, shu jumladan, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi yuksak pedagogik odob madaniyatini egallashi zarur. Bu uchun bo'lajak o'qituvchi pedagogik odobning talab va qoidalarini bilib, o'zlashtirib olishi, tajribada, pedagogik faoliyatda qo'llashi, o'zining dunyoqarashi va axloqiy tajribasi bilan boyitishi lozim, fikrlash va his etish, turmushida sinab ko'rish natijasida pedagogik odobning talab va qoidalari o'qituvchining shaxsiy e'tiqodiga, axloqiy fazilatiga aylanadi.

Ma'naviy-axloqiy madaniyati shakllangan o'qituvchi o'quvchilari, kasbdoshlari, ota-onalar, jamoatchilik orasida obro' qozonadi. Pedagogning ma'naviy-axloqiy

[4] Karimov I.A. Xalqning otashqalb farzandi. –T.: "O'zbekiston", 1992, 28 b.

madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa ta'lim-tarbiya ishlari shunchalik yuqori samarali va ta'sirli bo'ladi.

Ushbu fikrlar tadqiqotchi Nigora Ochilovaning "O'qituvchi odobining talab-qoidalari"[5] maqolasida o'z ifodasini topgan.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Ochilov o'zining ma'naviy-axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalalariga bag'ishlangan monografiya va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalarida pedagogikaning dolzarb muammolari, shu jumladan, o'qituvchining ma'naviy-axloqiy sifatlari, ularni tayyorlash, shakllantirish muammolariga bag'ishlagan. Shu jumladan, muallifning "Muallim-qalb me'mori"[6] saylanmasida o'qituvchining axloqiy fazilatlarini yetarlicha tahlil qilgan.

Tadqiqotchi Kamolova Shirinoy O'sarovna shaxs ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishning axborotli texnologiyalari yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot ishlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyo rlash masalalarini tahlil qilgan. Muallif hozirgi kungacha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning mazmun-mohiyatini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilganligini, ularga mos ilmiy-metodik ishlar natijalarga erishilganligini, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirish pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari nuqtai nazaridan asoslash zarurligini ta'kidlagan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish masalalari M.Bozorova, O.Ibodullayeva, A.Qobilova, A.Rahmatullayev, M.Rahimqulova, T.Saparova, A.Teshanboyev, S.Usmonovalarning ishlarida ham o'z ifodasini topgan.

Jumanazarova Dilshoda Umurzoqovna "Sinfdan tashqari o'qish jarayonida o'quvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishida millatimizning tafakkuri, pedagogikasi, urf-odatlari, rasm-rusumlari, madaniy-axloqiy tarbiyasi bilan bog'liq sermazmun xulosalari, madaniy merosimizda, xalq dostonlarida o'z ifodasini topganligini ta'kidlaydi.

---

5 Ochilova N. O'qituvchi odobining talab-qoidalari. //Xalq ta'limi. 1997 y. 2-son, 27-32 b.
6 Ochilov M. Muallim-qalb me'mori. –T.: O'qituvchi. 2001. 427 b.

Tadqiqotchi A.Abdumannotov o'zining "Alisher Navoiy merosi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirish ("Hayrat ul-abror" dostoni maqolotlari misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini tayyorlashda mutafakkir merosidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslab bergan.

Sobiq Ittifoq davrida O'zbekistonda ham pedagoglikka qobiliyati yo'q, bilimi past yuzlab yoshlar ham yili respublika o'qituvchilar tarkibiga qo'shila boshladilar. O'sha davrda o'qituvchilar yoshlarga ko'proq nazariy bilimlar berishga intildilar. Maktablar borgan sari bolalarni hayotga, mehnatga tayyorlash jarayonidan uzoqlasha bordi. O'qituvchilarning amaliy faoliyati, ta'lim-tarbiya ishlari Markazda tuzilgan yagona o'quv rejalari, yagona dastur, hamma respublikalar uchun bir xil darsliklar, bir yo'nalishdagi ish shakllari va usullarini qo'llash lozimligi bilan cheklab qo'yildi. O'qituvchilarning erkinligi, tashabbuskorligi amalda yo'qqa chiqarilgan edi.

Mamlakatimiz o'z istiqlolini qo'lga kiritgach iqtisodiy va ma'naviy sohada mustaqillikka erishish vazifasi kun tartibiga qo'yildi.

Ma'naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir.

Ma'naviyatning yana bir muhim jihati bilim, ilm, malaka, iste'dod va qobiliyat bo'lib, ular ham muayyan axloqiy kamolot zaminida shakllanadi.

Insonning axloqiy kamoloti, odobi, huquqiy madaniyati burch va mas'uliyat tuyg'usi, bilim kundalik faoliyati jarayonida sinovlardan o'tib, shakllanib va rivojlanib, insof, iymon, vijdon, ixls singari ma'naviy fazilatlar mustahkamlanishiga olib keladi.

Demak, bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy madaniyatni shakllantirish uchun yuqorida bildirilgan tegishli xulosa chiqarishimiz lozim. Aniqrog'i, axloq va odob ma'naviyat o'zagi, bilim, ilm, amaliy malaka, iste'dod – ma'naviyat belgisi, vijdon, e'tiqod, ixlosning

inson ma’naviyatidagi o’rnini, madaniyat, ma’rifat, mafkura va ma’naviyatning uzviy birligi asosida – bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisida ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish mumkin.

## 1.2.Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida madaniy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda sharq mutafakkirlarining fikrlari

Insonning yuksak ma'naviyati, undan ezgu fazilatlar jamiyat a'zolari o'rtasida nihoyatda qadrlangan. Bular jamiyat taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Uning qadri jamiyatning taraqqiyoti bilan yanada kuchayadi. Sababi, jamiyatning sifat jihatidan yangilanishi ma'naviyatning, axloqiylikning yuksalishini talab qiladi. Faqat ta'lim-tarbiya orqaligina yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar singdiriladi. Natijada ma'naviyatli insonning ijtimoiy faolligi oshadi, ta'lim va tarbiyasi o'zgaradi, jamiyatning navbatdagi taraqqiyoti tezlashadi. Pedagogik muammo hozirgi kunda quyidagi holatlar bilan dolzarblik kasb etadi:

Birinchidan, ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid bunday fazilatlar millat tarixida yuksak ma'naviyatning asosini, yuksak ma'naviyat esa davlatning negizini tashkil etadi. Chunki, har qaysi davlat, birinchi navbatda o'zining yuksak va ma'naviyati bilan kuchlidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy g'oya va milliy mafkura, barkamol avlodlar tarbiyasi bilan bog'liq nutqlari, maqolalari va asarlaridagi nazariy qarashlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ma'naviy-ma'rifiy ishlar sohasidagi qarorlari va dasturiy hujjatlarida, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanishiga alohida e'tibor berilgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish vazifasi alohida qayd etilgan.

Pedagogik axloqning paydo bo'lishi insoniyat tarixining eng qadim zamonlariga borib taqaladi. U o'qituvchilik kasbi bilan birga tarbiyachilik faoliyatining tarkibiy qismi sifatida vujudga kelgan. Ma'lumki, umumiy ta'lim maktablarida, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi mutaxassisni o'qituvchi, muallim, pedagog, ustoz, mudarris, domla deb yuritiladi. O'qituvchilik eng qadimiy kasblardan hisoblanadi. O'qituvchilik kasbining u bilan birga pedagogik axloqning vujudga kelishi ham kishilik jamiyati tarixida tarbiyaning paydo bo'lishi, insonlar to'plagan yurish-turish, xatti-harakatlar, mehnat sohasidagi dastlabki tajribalarni, urf-odatlarni, aqliy, axloqiy, ilohiy bilimlarni yoshlarga o'rgatish, yozuv ixtiro qilingach,

o'qish, yozishni o'rgatish uchun tashkil etilgan dastlabki maktablarning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Odamlar to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish, ularni hayotga, mehnat faoliyatiga tayyorlash ehtiyoji natijasida qadim zamonlardanoq ta'lim va tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'ldi.

Buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida ko'rsatishicha qadim zamonlarda ota-onalar, odatda o'z bolalarini oilada tarbiyalaganlar. Ammo, ota-onalar har xil bo'ladi: bolaga ta'lim-tarbiya berish bir xilning qo'lidan kelsa, bir xilning qo'lidan kelmaydi, bola tarbiyasi uchun ba'zilarning vaqti bo'lsa, ba'zilarining vaqti bo'lmaydi. Shu sababli ko'p oilalar o'z bolalarini bilimli, og'ir tabiatli maxsus kishilarga berib o'qitganlar. Yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi kishilarni pedagog deb, bolalarni to'plab o'qitadigan joyni – maktab, gimnaziya, akademiya, universitet deb ataganlar. Eng qadimgi maktablar sharqda – Xoldey, Vavilon, Misr, Isroil shaharlarida ochilgan. Maktab ochishni misrliklardan greklar, greklardan rimliklar o'rganib olganlar.

Markaziy Osiyoda eramizdan oldingi ming yillikda ham katta-katta qo'rg'onlar, shaharlar, davlatlar mavjud bo'lgan. Ularda madaniyat elementlari, din, yozuv, maktablar vujudga kelgan. Boshqa xalqlar qatori turkiy xalqlar ham qadim zamonlardanoq hayot taqozosi bilan bolalarni sog'lom, baquvvat, mehnatsevar, katta-kichiklarni izzat hurmat qiladigan xush axloq, botir, vatanni himoya qiladigan kishilar bo'lib ulg'ayishlarini orzu qilganlar. Tarbiya sohasida to'plangan tajribalarni, orzu-istaklarni umumlashtirib, maqola, topishmoq, ertak, rivoyat, hikoyat, doston, urf-odat, marosimlar, bayramlar an'ana kabilar shaklida ifodalanib yoshlarga, oila a'zolariga va boshqalarga o'rgatganlar. Shu tariqa o'zbek xalq pedagogikasi vujudga kelgan.

O'zbek xalq pedagogikasi asarlarida murabbiy, ustoz eng hurmatli, mo'tabar inson sifatida ulug'lanadi. "Ota bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l. Ustoz – otadek ulug'. Ota-ona bolani dunyoga keltiradi, ustoz esa uni yuksaklikka, ma'naviy kamolga yetkazadi" kabi hikmatlarida, murabbiy, ustozlarning mehnati, qadr-

qimmati ulug'langan. O'zbek xalq pedagogikasida bolalarga "Kimki yaxshi mehnat qilsa, bejirim buyum tayyorlasa u mahoratli usta", - degan g'oya singdirilgan. Bunday tarbiya jarayonda "Avval bil, keyin qil", "Avvalo o'rgan, keyin o'rgat", "Aql ko'pga yetkazar-hunar ko'kka", "Ustozsiz shogird – jonsiz kesak", "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar" kabi maqollarning ahamiyati katta bo'lgan. Xalqimiz yaratgan maqol, naql, afsona, rivoyat, hikoyatlarda ma'naviy-axloqiy ideallar qiziqarli o'gitlar shaklida bayon etilgan. "Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan", "Har kim ekkanin o'radi", "Bola aziz, odobi undan aziz" kabi maqollar shular jumlasidandir.

Zardo'shtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"ning pedagogik qimmati shundaki, u ko'p asrlar davomida yoshlarga ilmu ma'rifatni o'rgatish, axloq-odob fazilatlarini tarbiyalashda dasturamal vazifasini bajargan. "Har bir kishini shunday tarbiyalash kerakki, u avvalo yaxshi o'qishi va so'ngra yozishni o'rganib, eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin". Zardo'shtiylik ta'limotida odoblilik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, saxovatlilik fazilatlarini tarbiyalashga katta ahamiyat berilgan.

Bu davrda bolalarga ulamo-kohinlar saboq berganlar. Maktabda kichik yoshdagi bolalarni o'qitishda ko'rsatmali qurollardan hikoya qilish va suhbat usullaridan keng foydalanilgan.

Zardo'shtiylik ta'limotiga ko'ra yaxshi niyat, latif so'z, ezgu ishning birligi deyilganda, faqirlarga mehribonlik, musofirparvarlik, kishiga isnod keltiradigan ishlardan o'zini tiyish nazarda tutilgan.

Islom ta'limoti o'tmishda yaratilgan barcha ilohiy ilmlarni, insoniy tajriba va fazilatlarni umuminsoniy qadriyat sifatida o'zida jamladi. Qur'oni Karim va hadisda bayon etilgan axloqiy g'oyalar insoniyat madaniyati xazinasiga qo'shilgan ulkan jahon miqyosda allaqachon tan olingan. Ilm egallash, halollik, to'g'riso'zlik, adolatlilik, mehr-oqibat, ota-onani hurmat qilish, yetimlarga, kambag'allarga g'amxo'rlik, saxiylik, poklik, omonatga xiyonat qilmaslik, diyonat kabi axloqiy sifatlar ulug'langan. Hadisi sharifda ilm to'g'risida bunday deyilgan: "Ilm egallang. Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'izlik damlarida yo'ldosh, baxtiyor

daqiqalarda – rahbar, qayg'uli damlarda madadkor, odamlar orasida – zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir. Mo'minlarning afzali xulq-atvori yaxshilaridir. Sadaqaning afzali – mo'min kishi ilm o'rganib, so'ng boshqa mo'min birodarlariga o'rgatishdir. Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar".

Imom Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" asarining "Ilm kitobi"[7] bo'limida ilm egallash fazilati va xislatlari, ilm o'rganish va o'rgatish odobi to'g'risida fikr yuritiladi. Bu yerda ilm egallashning 54 qoidasi haqida hikoya qilingan. Shu mezon asosida ilm o'rgatuvchi va o'rganuvchilarga quyidagi didaktik talablar qo'yilgan:

- Ilm beruvchining ovozi tinglovchilarning hammasiga eshitarli me'yorda bo'lishi;
- Ilm mazmunan "aytgan edilar, xabar beradilar, guvohlik beradilar" kabi samimiy, yoqimli so'zlar bilan ifodalash;
- Biror ta'limiy yoki tarbiyaviy masalani o'rtaga tashlab, muhokama, munozara yo'li bilan o'rgatish;
- Ilm o'rgatish va o'rganish uchun ma'lum kunlarni qat'iy qilib belgilab qo'yish;
- Ilmni fahmlab, teran tushunib, anglab o'rganishi, esda mustahkam saqlash;
- Teran tushunilgan, yaxshi anglab olingan ilmlarni yod olish;
- Ilm o'rgatish jarayonida bolaga lozim hollarda tanbeh berish mumkinligi;
- Ilmni so'rab, bilib olish, ilm o'rganishda uyalmaslik, o'zi uyalsa, boshqa birov orqali so'rab bilib olishi lozimligi va hokazolar.

Islom ta'limotida bayon etilgan bu didaktik g'oyalar musulmon maktablarida o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi muomala munosabatlarini tartibga soluvchi axloqiy qoidalar sifatida amaliyotda.

Markaziy Osiyoda yashagan pedagog allomalar yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash, shuningdek, o'qituvchilik odobiga oid ma'lumotlarni ham yaratganlar. Abu Nasr al-Forobiy (873-930) o'z asarlarida har bir kishi munosib fuqaro bo'lishi

---

[7] Hadis. Birinchi kitob. Toshkent. 1991. 28-51 bet.

uchun muayyan darajada ta'lim-tarbiya olishi lozim deb hisoblaydi. Ustoz shogirdga zug'um qilishga, shuningdek, ko'p hollarda yon berishga intilmasligi darkor. Sababi, ortiqcha zug'um shogirdda ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi. Agar shogird ko'ngli yumshoqligini payqab qolsa, bu hol ustozni mensimaslikka, oqibatda u beradigan bilimdan sovib ketishga olib keladi.

Forobiyning ko'rsatishicha aqlli kishi o'tkir zehnli, fazilatli bo'lishi, o'zining qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarga yo'naltirishi, yomon ishlardan o'zini saqlashi lozim. Mutafakkir "Aql to'g'risida" nomli risolasida axloqli odam o'zida o'n ikki xislatni birlashtirgan bo'lishi lozim deb hisoblaydi. Insonda barcha a'zolar mukammal taraqqiy etgan bo'lishi kerak. Barcha masalalar mohiyatini to'g'ri tushuna oladigan, xotirasi baquvvat, zehni o'tkir, so'zlari ochiq, fikrini ravon aytadigan, haqiqatparvar, vatanparvar, g'urur va vijdonni qadrlaydigan, mol-dunyoga mukkasidan ketmagan, saxovatpesha kishilar axloqli odam hisoblanadi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) ning fikricha, tarbiya yagona jarayon. Bu jarayonda yoshlarga aqliy, jismoniy, axloqiy tarbiya berish va hunar o'rgatish ko'zda tutiladi. Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarida bolani olti yoshidan boshlab muallimga topshirish haqida so'z yuritiladi. Bolaga kuchi yetadigan mashqlarni bajartirish amali bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

Mutafakkir o'quvchilarga jamoviy ta'lim berish afzal ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha bolalar birga o'qiganda bolada ilmga intiluvchanlik kuchayishi dalillar orqali isbotlangan. Jamoada bola boshqalardan orqada qolmaslikka harakat qiladi, birga o'qigan bolalar bir-biri bilan gaplashib nutqi o'sadi, xotirasi mustahkamlanadi, ta'lim jarayonida bolalar bir-biri bilan inoqlashadi, bir-birlarini hurmat qilishga odatlanadi, munozara qilishni o'rganadi, o'zaro musobaqalashadi, o'zlarining burch va huquqlari to'g'risida fikr almashadi. Bu esa bolalarning xulqini yaxshilashga, axloq normalarini egallab olishga ko'maklashadi.

XI asrda yashagan Kaykovus "Qobusnoma"da bolalarga hunar o'rgatmoq to'g'risida to'xtalib, farzandiga qilgan nasihatida ota-onaning va muallimlarning bolaga muomala madaniyati masalasiga ham to'xtaladi. Chunki, u ota-ona o'z

bolasiga ilm va axloqiy fazilatlarni singdirish uchun bolaga muallim orqali ta'sir o'tkazish mumkinligini uqtiradi: "... Va har ilmni o'rgatuvchi muallimlar ta'lim uchun bolani ursalar sen (ota) shafqat ko'rgazgil, mayli ursinlar, nedinkim yosh o'g'lon ilm va odobni tayoq bilan o'rgatur va o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beodob bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimning tayog'i bila qo'rqitgil. Bolalarga muallimlar odob bersunlar, toki sendan o'g'ilning ko'nglida gina qolmasun".

XII asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Burhoniddin Zarnudjiy o'qituvchilik odobiga oid bir qancha axloqiy talablarni qo'yadi. Jumladan:

- O'rganish uchun fanlar orasida eng muhimlarini tanlash, bola nimaga qiziqishi, nimaga o'rganmoqchi ekanligi va kelgusi hayotda qaysisiga ehtiyoj tug'ilishini hisobga olish;
- Eng avvalo bilimli, olijanob muallim tanlash;
- Har bir kishi muruvvatpeshalik fazilatlarini egallashga intilish;
- O'quvchi muallimdan, o'rganayotgan fanidan, tanlagan kasbidan to'la qanoat hosil qilishi;
- O'quvchining o'rtog'i sofdil, pok fe'l-atforli bo'lishi, yalqov, ishtyoqmas, ezma bo'lmasligi, jinoyatga, qo'li egrilardan uzoqroq yurishi;
- O'quvchining muallimga, ustoziga hurmati – undan oldin yurmaslik, uning o'rniga borib o'tirmaslik, mashg'ulotlar paytida unga yaqinroq joyda o'tirmasligida bilinadi.

Muslihiddan Sa'diy Sheroziyning asarlari O'rta Osiyoda keng tarqalgan. "Guliston", "Bo'ston" kabi pedagogik-axloqiy kitoblari o'zbek maktablarida darslik sifatida o'qitilgan. "Guliston" asarining "Tarbiyaviy ta'siri bayonida" deb nomlangan yettinchi bobida tarbiyashunoslik ilmi, o'quvchi odobining muhim qonun-qoidalari qiziqarli hikoyatlar shklida bayon etiladi. Quyidagilar shular jumlasidandir:

- Ta'lim-taarbiyani egallash uchun bolada avvalo qobiliyat bo'lishi lozim:

*Qobiliyat bo'lsa aslida;*
*Tarbiyat unga qiladi asar.*

*Qancha urinma bo'mlas sayqali,*

*Temir aslida bo'lmasa gavhar.*

- Muallim bolalarni odobli qilib tarbiyalash, ularga andisha bilan gapirishni, maqbul harakat qilishni o'rgatishi lozim. Muallimning so'ziga amal qilmagan shahzodalarga jazo ko'proq berilish lozim, chunki ularning gapirgan gaplari, qilgan ishlari tillarda doston bo'ladi;
- Muallim til achchiq, badjahl, fosiq, haddan tashqari qattiq qo'l bo'lmasligi, shuningdek, o'ta sodda, muloyim tabiatli kishi ham bo'lmasligi joiz:

*Agarda muallim bo'lsa beozor,*

*Bolalar sinfni qilishar bozor.*

*Kumush ul taxtaga zardin bitib yod,*

*"Ota mehridan afzal ul ustod"*

- Mabodo tarbiyalanuvchi muallimning to'g'ri nasihatiga quloq solishni istama ham tarbiyachi bilganini unga aytishi joiz:

*Bahorda bargi mo'l daraxtlar nochor,*

*Yalang'och qilar qish izg'irinda.*

*Past, nodon maslikda o'ylamas aslo,*

*Ne kechar ahvoli yo'qlik kunida.*

- Tarbiyaning natijasi, samarasi bolaning tabiatiga bog'liq:

*Tilla-kumush bari chiqsa ham toshdan,*

*Barcha toshda oltin bo'lmog'i gumon.*

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) "Mahbub ul-qulub" asarida kasb axloqi, turli guruh kishilarining odobi masalasini maqolotlar shaklida ifoda etadi. U ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini axloq-odob talablarini ko'rsatadi. Ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi tamoyillarni asos qilib oladi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil qiladi.

O'qituvchi odobi, muallimlik kasbi, mudarrislar, maktabdorlar to'g'risida gapirar ekan, muallim o'z shogirdlarini sevishi zarur, deydi. O'ziga ham o'quvchiga

ham talabchan bo'lishi lozimligi uqtiriladi. O'qituvchini jamiyatda obro'li va hurmatli loyiq insondir, deb hisoblaydi. Shogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e'zozlashlari zarurligi uqtiriladi.

Alisher Navoiy o'z zmonasidagi maktabdorlar haqida gapirib, ular bolalarga jafo qilish, azob berish, kaltaklashga o'rganib qolishganini tanqid qiladi. Ular sababsiz achchiqlanishiga odatlanishgan. Muallimlardagi bu illatlar tarbiya jarayonining qiyinchiliklaridan, bolalarning tabiati, fe'l-atvori, fahm-farosati turli-tumandagi ta'sirida vujudga keladi, deb hisoblaydi. Navoiyning fikricha gohida bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir guruh bolalarga ilmu-adab o'rgatadi. Bu jarayonda muallim ko'p aziyat chekadi, mashaqqatlarni o'z boshidan kechiradi. Shu bois shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari darkor. Shogird podshohlik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi:

*Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,*
*Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz ganj ila.*

Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida o'qituvchi odobiga doir quyidagi mulohazalar bayon etilgan:

- mudarris ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim;
- muallim bolalarga beradigan narsalarini o'rgatishi, bilmagan ilmlarini o'rgatishga urinmasligi lozim.

## 1.3 Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning hozirgi holati va imkoniyatlari

Ma'naviyat va jamiyat tushunchalari bir-biri bilan chamdarchas bog'langan. Jamiyat ma'naviyatsiz bo'lmaganidek, ma'naviyat ham jamiyatdan tashqarida yuzaga kelishi, rivojlanishi mumkin emas. Jamiyat ma'naviy kamol topib, muayyan maqsadlar, manfaatlar asosida uyushgan kishilarning birligidir. Ma'naviyat insonga o'ziga xos betakror mohiyat, imkoniyat baxsh etadi, jamiyat a'zolarini birlashtiradi, uyushtiradi.

Ma'naviyat shaxsning, insonning, xalqning, davlatning, jamiyatning kuchi va qudratidir, taraqqiyotini, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilovchi ichki ijobiy, ruhiy omildir.

Jamiyat taraqqiyoti va kishilarning ma'naviy kamoloti bir-biri bilan bog'langan. Shuning uchun ham insoniyat tarixining barcha davrlarida olimlar bu jarayonning imki mohiyatini, qonunlarini anglashga, ularga yo'nalish berishga harakat qilganlar. Barcha davrlardagi davlatlarda ta'lim-tarbiya ma'rifiy ishlar tizimi ham shu maqsadlar bilan bog'langani sir emas.

Ta'lim-tarbiya ishlarining zaminida barcha davrlarda ham muayyan manfaatlar bilan bog'langan maqsadlar yotgan. Bu maqsadlar tizimi va ularning mohiyati davlatlar turli siyosiy kuchlar yaratgan va amal qilgan mafkurada ifodalngan. Har qanday mafkura ham jamiyat ma'naviy kelajagini, unga zamin bo'ladigan ta'lim-tarbiya ishlar tizimini muayyan ijtimoiy, siyosiy maqsadlar bilan bog'lashga qaratilgan g'oyalardan iborat bo'lgan.

Ma'naviyatsiz inson bo'lmaganidek, ma'naviyatsiz ma'rifatli, rivojlangan jmiyat ham bo'lmaydi. Chunki, kishilar ma'naviyatida yangicha fikrlash bo'lmasa, ta'bir joiz bo'lsa, ongida islohot qilmay turib, siyosiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirish qiyin kechadi va o'ylangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Har bir jamiyatning ma'naviyati inson kamolotining u yoki bu bosqichiga xos bo'lgan iymon va e'tiqodi, axloq-odobi, tajriba va malakasini o'z ichiga oladi va kishilarning faoliyati, iste'dodi, qobiliyati, yurish-turishida namoyon bo'ladi.

Tarixdagi dono daholar, adolatli podshohlar, buyuk allomalar millatni og'ir vaziyatdan xolos etib, taraqqiyotni tezlashtirish uchun, birinchi navbatda ma'naviy omillarga e'tibor berishgan, kishilarni vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik, millatparvarlik, do'stlik, birodarlik, halollik, iymon-insoflilik, vijdonlilik, mehr-muruvvatlilik, rahm-shafqatlilik ruhida tarbiyalashda, ularda milliy iftixor, burch va mas'uliyat tuyg'usini kuchaytirishga harakat qilgan.

"Ma'naviyatning mohiyatini belgilovchi to'rt tarkibiy qism bor. Bular: a) axloq va odob; b) shular asosida amaliy mehnat jarayonida yuzaga kelgan bilim, ilm, amaliy malakalar, iste'dod, qobiliyat; v) axloqiy, ilmiy yetuklikning natijasi bo'lgan iymon, e'tiqod, vijdon, insof, ixlos; g) inson bolalari, amaliy tajribasini umumlashtirishga, faoliyatga yo'nalish berishga qaratilgan dunyoqarash va mafkurasidir"[8].

Axloqiy fazilatlar ko'pchilik o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Sharq xalqlarida, jumladan, o'zbek xalqida birinchi navbaatda insoniy munosabatlar zaminida axloqiy mezon ustuvorlik qiladi. O'zbekning uyiga begona kishi kelsa, birdaniga nima uchun kelganini emas, balki holu-ahvollik, bola-chaqasining tinchligini so'raydi. To'rga o'tqazib, qo'liga bir piyola choy beradi va shundan keyingina nima ish bilan kelganini so'raydi. Bu ham o'zbekona axloqning belgisidir. O'zbeklarning ma'naviy-madaniy birligi axloqiy birligining ham ifodasidir. To'ylarda, dafn etish marosimlarida kishilarning bir-biriga bo'lgan oqibati, mehr-muruvvati ham muayyan vaziyatlardagi axloqiy muhitning ko'rinishidir.qur'oni Karimda ham insonning axloqiy kamoloti masalalariga nihoyatda katta e'tibor berilgan. Payg'ambarning rafiqasi bibi Oyshadan: "Muhammad alayhissalomning axloqi qanday edi?", - deb so'rashganda, "Rasululloh axloqi Qur'on edi", - deb javo bergan ekan.

Kundalik hayotda axloq qoidalariga rioya qilish – odobdir. Odob axloqiy fazilatlar insonning kundalik faoliyatiga singib borayotganini ko'rsatuvchi mezondir. Odob boshqalar bilan bo'lgan muomalada, salom berish va alik olishga odatlanishga,

[8] Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. –T.: Universitet. 1998. 183 b.

kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, jamoatchilik ichida, oilada o'zini tutish kabilarda namoyon bo'ladi.

Demak, **odob** – jamiyat qabul qilgan axloq normalarini inson faoliyatida, xatti-haraktida, muomala va muloqotida namoyon bo'lishidir. Har bir shaxsni sirtdan kuzatish mumkin bo'lgan odobiga qarab, uning ichki dunyosi, axloqi madaniyati darajasiga baho berish mumkin. Axloqiy barkamol kishilargina odobli bo'ladi. Axloqsiz odob bo'lmaganidek, odob shakliga kirib, inson faoliyatiga singib ketmagan axloq ham e'tiqod darajasiga ko'tarila olmaydi.

Axloqiy tubanlashgan shaxs odobsiz bo'ladi. Beodoblik insonning o'z faoliyatida, boshqalar bilan munosabatida iymon, insof, andisha, sharmu-hayo, insonparvarlik kabi axloqiy mezonlar chegarasidan chiqishidir. Beodoblik tug'ma xususiyat emas, balki tarbiyasizlikning, elga e'tiborsizlikning ifodasidir. Xoja Samandar Termiziy aytganidek, har kim agar yoshligidan beodob kishilar ichida o'sib ulg'aysa, katta bo'lgach, uning vujudiga o'rnashib olgan badfe'llik illatini chiqarib tashlash qiyin bo'ladi.

Tarbiyalanganlik kishining har bir xatti-harakati boshqalarda unga nisbtan hurmat tug'diradi. Shu bois yaxshi tarbiya ko'rgan, odobli kishi bo'lishga intilish har bir insonga xos. Chunki, odob – qalbdagi oftobning nurlaridir.

Donolar aytganidek, odob ahli bilan hamsuhbat bo'lish – gullar hidlari ufurayotgan tong nasmidan ham shirindir.

Arab olimi Barxudor ibn Mahmudning aytishicha "Odob insoniyat uchun ajoyib toj va odamiylik bezagi uchun qimmatbaho gavhardir"[9].

Muayyan odob doriasida bo'lish, yaxshi nom qoldirishga intilish insoniyat paydo bo'libdiki, mavjud. Insonning eng yaxshi fazilatlari nasl-nasabi, bilimi bilan emas, odobi bilan belgilanadi. "Otang bilasi bo'lma, odam bilasi bo'l", - degan maqolda shu ma'no bor.

**Odob** – bu kamtarlik, oq ko'ngillik, samimiylik, sharm-hayo va andishalilik, sadoqatlilik, xushmuomalalik, saxovatlilik, mehribonlik, odamoxunlik, shirin

---

[9] Odob bo'stoni va axloq gulistoni. –T.: Fan, 1994. 6-bet.

so'zlilik, o'zini tuta bilishlik kabi fazilatlardir. Odob – ishga o'rganishdan, bemorlarga, do'stlarga yordam berish tuyg'usi shakllanishidan, kamtarlikdan boshlanadi. Shu sababli inson farzandining hayotdagi birinchi qadamlarini odob madaniyatini shakllanishining ilke bosqichlari deb atash mumkin. Axloq ma'naviy asos, odob esa uni amaliy ko'rinishidir.

O'zbekiston fuqarosining ma'naviy qiyofasini belgilovchi fazilatlar, sifatlar vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g'urur, mehnatsevarlik, baynalmilallik kabilar maktab va o'qituvchining faol ishtiroki ta'siri ostida shakllanadi. O'qituvchining faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy xarakterga ega.

Agar o'qituvchining umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlar sohasilagi bilimlari sayoz, tasavvurlari mavhum bo'lsa, uning fikri, so'zi, amaliy ishlari o'rtasida uzilish bo'lsa, muallim yangi jamiyat qurayotgan hozirgi davrda maktablar va tarbiya sohasida kun tartibiga qo'yayotgan vazifalarni samarali bajara olmaydi. Barcha pedagogik xodimlarning har bir so'zi va amaliy xatti – harakatlari o'quvchilarga, tarbilanuvchilarga umuminsoniy va milliy axloqni singdirish maqsadiga xizmat qilishi lozim. Bu o'z navbatida, bo'lajak muallim va o'quvchilardan axloq nazariyasiga doir bilimlarni egallash, axloqiy tasavvur va tushunchalar, o'qituvchi odobiga doir bilimlarni muntazam oshirib borishi, mulohaza qilib, uning mohiyatini tushunishi, mag'zini chaqishni talab qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy sifatlari kasbiy-ma'naviy fazilat bo'lib, oliy maktabda amalga oshiriladigan pedagogik jarayonda shakllanadi. Bu jarayonda kasbiy tayyorgarlik bilan tarbiyaning barcha tarkibiy qismlari, aqliy tarbiya, mehnat, huquqiy, iqtisodiy, ekologik, jismoniy va estetik tarbiya uzviy ravishda bog'langan holda o'sib rivojlanadi. Demak, bo'lajak o'qituvchining kasbiy-axloqiy sifatlari umuminsoniy va milliy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida shakllana boradi.

Oliy o'quv yurtlari (jumladan, pedagogika universitetlari va pedagogika oliy o'quv yurtlari) da axloqiy tarbiya jarayoni yoshlarga axloqqa doir bilimlarni berish, bo'lajak pedagoglarga o'qituvchi odobining tushuncha va qoidalarini o'rgatish,

pedagogik axloqiy e'tiqod, axloqiy hislar, ehtiyojlar va o'qituvchiga xos axloqiy fazilatlarni shakllantirish, xulq-odobga o'rgatish kabilarni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini – oliy o'quv yurtining professor-o'qituvchilar jamoasi, fakultet, guruh jamoalarining jamoat tashkilotlarining biror aniq maqsadni ko'zlab, bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy rivojlanishga faol ta'sir etishidir.

Har tomonlama rivojlangan shaxs mazmunida bo'lajak mutaxassisning, shu jumladan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy madaniyati muhim rol o'ynaydi. Chunki, ma'naviy-axloqiy madaniyati shakllangan mutaxassis jamiyat, xalq manfaatini ko'zlaydigan, ular oldidagi burchni, mas'uliyatni teran anglaydigan, Vatanga, jamiyatga, xalqqa, uning qadriyatlariga, o'z faoliyatiga, tabiatga, kelajakka insoniy xislatlar nuqtai nazari bilan yondashadigan shaxs bo'lishi kerak.

Ma'lumki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyat oliy o'quv yurtlarining butun o'quv-tarbiya tizimi jarayonida shakllanib boradi. Bu jarayonda ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlar asosiy o'rin egallaydi. Oliy ta'limning o'quv rejasidan o'rin olgan "O'zbekiston tarixi", "Huquqshunoslik", "O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi", "Falsafa", "Ma'naviyat asoslari", "Iqtisodiyot nazariyasi", "Sosiologiya", "Psixologiya", "Pedagogika", "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" va boshqa fanlar – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini jamiyat, siyosiy, madaniy va ma'naviy hayot, mamlakat tarixi, iqtisodi, moddiy boylik va ijtimoiy turmushning ilmiy-falsafiy, mafkuraviy jihatlari bilan tanishadilar va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiat, jamiyat faoliyatiga bo'lgan yangicha munosabatni, ongli intizomni va aqliy mehnat madaniyatini, ma'naviy-axloqiy bilim, his-tuyg'ularni, salbiy illatlar va yot g'oyalarga qarshi murosasizlikni tarbiyalashga yordam beradi.

Jamiyat rivoji va mamlakat taraqqiyotini madaniyatsiz va ma'naviyatisiz tasavvur etish qiyin. "Madaniyatshunoslik" kursning dasturidan o'rin olgan "Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati", "Sharq uyg'onish davri

madaniyati", "Temur va temuriylar davri madaniyati", "Milliy istiqlol va O'zbekistonda madaniy taraqqiyot", "Ma'naviyat asoslari" fani mazmunidadagi "Ma'naviyat, iqtisodiyot va ularning o'zaro bog'liqligi", "Ma'naviyatning siyosiy, huquq va hokimiyatdagi o'rni", "Ma'naviy barkamol, komil inson tushunchalari, ularning sharqona ta'rifi", "Iymon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, e'tiqod, poklia vavafodorlik – shaxs ma'naviy fazilatlari", "Huquqiy savodxonlik, qonunga itoatkorlik, davlat tizimiga hurmat va fuqarolik burchiga sadoqat shaxs barkamolligi mezonlari" kabi mavzularni o'rganishda qadimgi o'zbek xalqlarning axloqiy-ma'naviy, huquqiy madaniyatining shakllari to'g'risida ma'lumot berish va ularning hozirgi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyot uchun ahamiyatini har bir talaba-yoshlarning ongiga yetkazish – ularda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllanishini tezlashtiradi.

Shuningdek, qayd etilgan mavzular mazmunidagi g'oyalar mustaqil fikrlovchi, o'z-o'zini tarbiyalash va bu fazilatlarni uning axloqiy-ma'naviy maadaniyatining mazmuniga aylantirish uchun muhim manba ekanligi har bir oliy ta'lim o'qituvchisi unutmasligi lozim.

Bu yo'nalishda pedagogika turkum fanlarining o'rni katta. Kursning mazmunidan o'rin olgan "Barkamol avlod tarbiyasining maqsad va vazifalari", "Yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi", "Barkamol avlodning g'oyaviy-siyosiy (mafkuraviy), jismoniy, kasb-kor va mehnati" iqtisodiy, huquqiy, ekologik, nafosat, fuqarolik tarbiyasi kabi mavzular ham ma'naviy-axloqiy madaniyatning muhim mezonlari – odamiylik, adolatparvarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, sabr-toqat, burchga sadoqat, mehnat ahliga muhabbat kabi tuyg'ularni talabalarda singdirishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Kurslarning har bir mavzusi o'rganilgandan so'ng mustaqil ish sifatida "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Inson go'zalligi ma'naviyatda", "Mustaqillikni mustahkamlash uchun nima qila oldim?", "Madaniyatlilik insoniylikning bosh mezoni", "Diyonat, imon-e'tiqod mening tasavvurimda" kabi mavzularda referatlar

yozish va tahlil qilish talabalarda ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllanishiga yordam beradi.

Biz bevosita mavzumiz yo’nalishidan kelib chiqib “Boshlang’ich ta’lim va tarbiyaviy ish” bakalavriat yo’nalishi bo’yicha bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda pedagogik turkum fanlarning o’rniga to’xtalsak: o’quv rejaga ko’ra bo’lajak boshlang’ich sinf o’quvchilar to’rt yil davomida “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Defektologiya asoslari” kabi pedagogik turkum fanlarni o’rganadi. Ushbu fanlardan o’rtacha 200 soat atrofida ma’ruza, 120 soat seminar, 100 soatga yaqin amaliy va laboratoriya mashg’ulotlarini o’tishadi. Shuningdek, talabalar ushbu fanlardan tegishli soatlar atrofida bitiruv-malakaviy ishlar, mustaqil ish, referat, kurs ishlarini yozishadi.

Biz quyida “Boshlang’ich sinf va tarbiyaviy ish” bakalavriat yo’nalishi bo’yicha “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanidan bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida ma’naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirishning mavjud holati va imkoniyatlarini keltirmoqchimiz:

***1-jadval***

| № | O’talidagan mavzular nomi | Dars shakli | Soat | Ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish imkoniyatlari |
|---|---|---|---|---|
| **Ma’ruza mashg’ulotlari** | | | | |
| 1. | Pedagogika fan sifatida. Uning predmeti, maqsad va vazifalari. | Ma’ruza | 2 | Bevosita |
| 2. | Pedagogik tadqiqot metodlari. | Ma’ruza | 2 | Bevosita |
| 3. | Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. | Ma’ruza | 2 | Bevosita |
| 4. | Yosh avlodni tarbiyalashning maqsad va vazifalari. | Ma’ruza | 2 | Bevosita |
| 5. | O’zbekistonda ta’lim tizimi va hozirgi davr o’qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o’rni. | Ma’ruza | 2 | Bevosita |
| 6. | Didaktikaning predmeti va vazifalari. | Ma’ruza | 2 | Bilvosita |
| 7. | Ta’lim jarayoni yagona tizim sifatida. | Ma’ruza | 2 | Bilvosita |
| 8. | Ta’lim mazmuni. | Ma’ruza | 2 | Bilvosita |
| 9. | Ta’lim tamoyillari. | Ma’ruza | 2 | Bilvosita |
| 10. | Ta’lim metodlari va vositalari. | Ma’ruza | 2 | Bilvosita |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 11. | Ta'limni tashkil etish shakllari. Dars – ta'limni tashkil etishning asosiy shakli sifatida. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 12. | O'quvchilar, bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olish va baholash. | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 13. | Tarbiya jarayoni mohiyati va mazmuni. Tarbiya tamoyillari. | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 14. | Tarbiya metodlari. | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 15. | Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'quvchilaarni aqliy tarbiyalash. | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 16. | Fuqarolik tarbiyasi. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 17. | Mehnat tarbiyasi. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 18. | O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash. | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 19. | Nafosat tarbiyasi. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 20. | Jismoniy tarbiya. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 21. | Ekologik va iqtisodiy tarbiya. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 22. | O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va uni boshqarish. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 23. | Ta'lim muassasasi menejmenti. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 24. | Pedagogika tarixi va o'quv predmeti sifatida. | Ma'ruza | 4 | Bilvosita |
| 25. | VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha Turonda tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti. | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 26. | XIV-XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 27. | XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 28. | 1917-1920 yillarda O'zbekistonda maktab va pedagogika fani. | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 29. | Jahon pedagogika fani rivojlanishi tarixi. | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 30. | Rivojlangan mamlakatlarda xalq ta'limi | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 31. | Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Buyuk pedagoglar pedagogik mahorat to'g'risida. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 32. | Pedagogik ta'sir vositlari haqida umumiy tushuncha. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 33. | Pedagogik texnika. Ovozni, nutqni boshqarishning ilmiy asoslari. | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 34. | O'qituvchi va o'quvchi orasidagi muomala madaniyati va pedagogik hamkorlik. | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 35. | O'qituvchi – ta'lim-tarbiya jarayonini boshqruvchi rejissyor va aktyor sifatida. O'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish. | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 36. | Pedagogik mahoratning O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ommalashtirish | Ma'ruza | 2 | Bevosita |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | usullari va yo'llari. O'quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi-tarbiyachi mahoratining roli. | | | |
| 37. | Shaxslararo va millatlararo muomala madaniyati-pedagogik mahorat shakli sifatida. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 38. | Milliy maktab va unda pedagogik mahorat masalalari. Sharqona pedagogik mahorat masalalari. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 39. | "Yangi pedagogik texnologiyalar" fanining metodologik asoslari. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 40. | Yangi pedagogik texnologiyalarning tarkibiy tuzilmasi. | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 41. | O'qitish texnologiyalarini loyihalash. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 42. | O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish tizimini loyihalash. Natijalarni baholash tizimini loyihalash. | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| 43. | Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari. Modulli o'qitish texnologiyalarida o'quv jarayonini tashkil etish. | Ma'ruza | 2 | Bilvosita |
| 44. | Yangi pedagogik texnologiyalar tizimi chet el pedagogikasining interfaol usullari (aqliy hujum, munozara, debat, tanqidiy fikrlash va boshq.) | Ma'ruza | 2 | Bevosita |
| **Jami:** | | | **90** | |
| **Seminar mashg'ulotlari** | | | | |
| 1. | Pedagogika fanining maqsadi va vazifalari. | Seminar | 2 | Bilvosita |
| 2. | Pedagogika fanini asosiy kategoriyalari. Pedagogika fanlar tizimi. | Seminar | 2 | Bilvosita |
| 3. | Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 4. | O'quvchi shaxsining rivojlanishi va tarbiya. O'quvchi shaxsining rivojlanish davrlari. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 5. | O'zbekistonda ta'lim tizimi. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 6. | O'qituvchi. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 7. | Didaktika. | Seminar | 2 | Bilvosita |
| 8. | Ta'lim mazmuni. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 9. | Maktabning o'quv dasturi. | Seminar | 2 | Bilvosita |
| 10. | O'qitish metodlari va vositalari. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 11. | Ta'limni tashkil etish shakllari. | Seminar | 2 | Bilvosita |
| 12. | O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olish, baholash. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 13. | Hozirgi zamon tarbiya jarayonining maqsadli erkin barkamol shaxsni shakllantirish. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 14. | Shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlarini | Seminar | 2 | Bevosita |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | shakllantirish. | | | |
| 15. | Tarbiya metodlari. | Seminar | 2 | Bilvosita |
| 16. | Umumiy o'rta ta'lim maktablarini boshqarish va rahbarlik qilish. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 17. | Pedagogik g'oyalar tarixini rivojlanish bosqichlari. | Seminar | 2 | Bilvosita |
| 18. | Temuriylar davridan XIX asrgacha bo'lgan O'rta Osiyoda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. | Seminar | 2 | Bilvosita |
| 19. | O'zbekistond XIX asr boshlaridan mustaqillikkacha bo'lgan davrda xalq maorifi va pedagogika. | Seminar | 2 | Bilvosita |
| 20. | Jahon pedagogika fani va rivojlanish tarixi. | Seminar | 2 | Bilvosita |
| 21. | Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim tizimi. | Seminar | 2 | Bilvosita |
| 22. | Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. | Seminar | 2 | Bilvosita |
| 23. | Buyuk pedagoglar pedagogik mahorat to'g'risida. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 24. | Pedagogik ta'sir vositalari haqida umumiy tushuncha. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 25. | Pedagogik texnika. Ovozni, nutqni boshqarishning ilmiy asoslari. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 26. | O'qituvchi va o'quvchi ooasidagi muomala madaniyati va pedagogik hamkorlik. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 27. | O'qituvchi – ta'lim-tarbiya jarayonini boshqaruvchi rijissyor va aktyor sifatida. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 28. | O'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish. Pedagogik mahoratning O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ommalashtirish usullari va yo'llari. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 29. | O'quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchining roli. | Seminar | 2 | Bevosita |
| 30. | Shaxslararo va millatlararo muomala madaniyati – pedagogik mahorat shakli sifatida. Milliy maktab va unda pedagogik mahorat masalalari. Sharqona pedagogik mahorat masallari. | Seminar | 2 | Bevosita |
| **Jami:** | | | **60** | |

Ko'rinib turibdiki, deyarli barcha mavzularda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning imkoniyatlari yetarli. Bunda yuqori natijalarga erishish professor-o'qituvchining bilimi va mahoratiga bog'liq.

Biz muammoning oliy o'quv yurtidagi hozirgi holatini aniqlash maqsadida 1-kurs talabalariga so'rovnomalar tarqatdik (1-ilova).

Ma'naviyat tushunchasining mazmunini bilasizmi?

So'rovnomadagi "Ma'naviyat tushunchasining mazmunini bilasizmi?", - degan savolga talabalar bilan og'zaki suhbatlar o'tkazildi va talabalarning xabardorlik darajasi tekshirildi.

Ushbu anketadagi birinchi savolga nazorat guruhlaridagi 30 nafar o'quvchidan 17 nafari qoniqarsiz, 6 o'quvchi qoniqarli, to'liq bo'lmagan javobni berdi. 7 nafar talab axloq tushunchasining mazmunini ayta olmadi.

Sinov sinflaridagi 1-02 BTU guruhi 32 nafar taladan 11 nafari qoniqarsiz, 13 nafari, qoniqarli, 8 nafari yaxshi javob berdilar. O'quvchilarning javoblari quyidagi ifodalanadi.

***2-jadval***

**O'quvchilarning javobi tahlili**

| № | Javoblar | Ma'naviyat tushunchasining mazmuni | |
|---|---|---|---|
| | | Nazorat guruhi | Sinov guruhi |
| 1 | Qoniqarsiz (noto'g'ri) | 17 | 11 |
| 2 | Qoniqarli (to'liqmas) | 6 | 13 |
| 3 | Yaxshi (to'liq) | 7 | 8 |
| Jami o'quvchi: | | **30** | **32** |

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Pedagogika turkum fanlarini yuqori saviyada o'tishni ta'minlash lozim;

2. Madaniyat soatlarining darajasini ko'tarish, uning yangi qirralarini izlab topish kerak;

3. Talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga e'tiborni qaratish zarur;

4. Talabalarning kiyinish, o'zaro muloqot madaniyatiga e'tiborni qaratish;

5. Talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga oid uslubiy tavsiyalar zarur.

# II. BOB. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI

## 2.1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda dars mashg'ulotlarining o'rni

Muallimlik kasbining sharafliligi, nafaqat, uning o'qituvchi, turli bilimlarni o'rgatuvchi va mohir tarbiyachi bo'lganligi uchungina emas, balki uning o'zi tanlagan oliy o'quv yurtidagi barcha mutaxassisliklar bo'yicha maxsus fanlarni va ularning poydevori bo'lgan fundamental fanlarni hamda o'qitish va tarbiya berishni, psixologiya va pedagogika asoslarini a'lo darajada egallagan bo'lishi shart. Shu bilan birga o'z kasbining ustasi bo'lgan muallim turli darajadagi bilimga, xohish va irodaga hamda tarbiyaga ega bo'lgan talabalarni ajoyib san'atkor kabi o'ziga ergashtira olishi zarur. Bunday kasbiy pedagogik xususiyatga ega bo'lgan muallim o'ziga quyidagi majburiyatlarni olishi kerak: Birinchidan, yosh pedagog, tarbiyachi kelajakdagi pedagoglik faoliyati uchun o'zining imkoniyatlarini baholashi, o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini bilishi, kasbiy pedagogik tayyorgarlik davrida qanday kasbiy zaruriy sifatlarni shakllantirish kerakligini va yana qandaylarini mustaqil pedagogik jarayonda shakllantirishi kerakligini bilishi lozim. Ikkinchidan, yosh pedagog intellektual faoliyatining umumiy tomonlari (tafakkur, xotira, qabul qila olishi, ko'z oldiga keltirishi, e'tibori)ni hulq-atvor madaniyati va shu jumladan, pedagogik aloqani egallagan bo'lishi shart. Uchinchidan, pedagog uchun majburiy dastlabki shart-sharoit muvaffaqiyatli faoliyati asosi bo'lgan o'quvchini o'zining tengquri deb qarashi va uning hulq-atvori o'zaro aloqasidagi qonun-qoidalarni bilishi kerak. Pedagog, tarbiyachi va tarbiyalanuvchini, uning barcha xususiyatlaridan qat'iy nazar, bilishi va qabul qilishi shart. To'rtinchidan, pedagog nafaqat talabalar o'qish faoliyatining tashkilotchisi va o'qish jarayonini tashkil etuvchilarning o'zaro aloqasini ilhomlantiruvchi bo'lib xizmat qilishi bilan birga ma'lum ma'noda bilim, tarbiya berishi va demak, umumiy maqsadlarga erishishda ularning do'sti sifatida qatnashishi zarur. Bu esa talabalar oldida doimo o'zlarining tashkilotchilik,

kommunikativ xususiyatlarini pedagogik-psixologik bilimlarni o'zlashtirish jarayonida rivojlantirib borishlarini va ulardan pedagogik amaliyotlarida samarali foydalanishga intilishlarini yuzaga keltiradi. Pedagoglar uchun ham Gippokrat qasamini taalluqli deb qaralsa, uni quyidagicha izohlash mumkin. Talabadagi insoniylik va shaxslikni hurmat qilish, o'zingizga qanday munosabatda bo'lishlarini xohlasangiz, ularga ham shunday munosabatda bo'ling: 1. Doimo o'zingizni rivojlanish va o'sishga, o'qishga undang, zero, kimki o'zi bilmasa, boshqalarda o'qishga ishtiyoq tug'dira olmaydi. 2. Talabalarga bilimni shunday beringki, toki, ular o'zlashtirishni xohlasin va o'zlashtirsin. 3. O'qitishning maqsadi faqat talabaga ma'lum bilimlarni berishdan iborat bo'lmay, ularda mustaqil va o'qituvchi yordamisiz yuqori cho'qqilarni egallash malakalarini yaratishdan iborat. Respublikadagi barcha ixtisosliklardan 86 yo'nalish uchun kasbiy pedagog bakalavrlar va pedagog magistrlarni tayyorlash amalga oshirilmoqda, bu yo'nalishlarda tayyorlanayotgan pedagog bakalavrlar asosan akademik-liseylar va kasb-hunar kollejlari uchun mo'ljallangan bo'lsa, shuncha miqdordagi pedagog magistrlar mos ravishdagi oliy o'quv yurtlari uchun pedagog o'qituvchilardan iborat bo'lmoqda. Hozir dunyoning barcha mamlakatlari asosan uzluksizlikni tashkil etuvchi yangi ta'lim tizimini ishlab chiqish fikridadirlar. Ta'lim va uzluksiz ta'lim tizimining rivojlanishi pedagoglik kasbining yetarlicha o'zgarishiga olib keladi. O'qitish va tarbiya jarayonidagi mutaxassislar sonining uzluksiz ortishi yuzaga keladi. Bu hol pedagoglik kasbining nafaqat keskin ortishiga va turlarining ko'payishiga olib keladi. XXI asr talabiga ko'ra, o'qituvchilarni tayyorlash tizimini zamonaviylashtirishning umumiy tomonlari: -o'qituvchilarning asosiy qismini oliy ta'lim, universitetlar tayyorlay boshladi, bu esa o'qituvchilar kasbini boshqa mutaxassislar darajasiga ko'tarib, ularning jamiyatdagi rolini oshirishga olib keladi; -pedagogik ta'limning ko'p sathli va variantligiga o'qituvchilar va boshqa mutaxassislar turli davomiylikda tayyorlana boshlandi (bakalavr, mutaxassis, magistr); -pedagogik ta'limda umumta'lim qismlarini kuchaytirish. O'qituvchi o'zining murakkablashgan funksiyalarini bajarish uchun ko'p tomonlama va yuqori

bilimli, ruhan boy, inson tabiatini o'tkir sezuvchi inson bo'lishi shart. -boshqa yo'nalishdagi mutaxassislarni ham o'qituvchilikka tayyorlash va hokazo.

Axloqiy tarbiya, avvalo, fan asoslarini egallash jarayonida amalga oshiriladi. U yoshlarda axloqiy tasavvurlar, tushunchalar, odatlar, mehnat malakalari va xulqni shakllantirishni, shuningdek, kishining tashqi olamga, jamiyatga, jamoaga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini nazarda tutadi. Axloqiy tarbiya tizimi talabalarga axloq-odobga doir izchil bilimlar berishni talab qiladi. Oliy o'quv yurtlarining mavjud o'quv dasturlari tarbiyaviy g'oyalarga, uni amalga oshirish uchun aniq materiallarga boy. Ijtimoiy-gumanitar va psixologik-pedagogik fanlarning o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalari va darsliklarida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga yordam beridigan faktlar yetarli. Ularda ayniqsa vatanparvarlik, insonparvarlik, mas'uliyat, axloqiy-irodaviy, kasbiy va boshqa sifatlarni o'stirish uchun asos bo'ladigan materiallar mavjud. 1-kurs talabalari ilg'or ideallar, umuminsoniy va milliy axloq to'g'risidagi ma'lumotlarni "O'zbekiston tarixi" kursidan bilib oladi. "Pedagogika" fanida esa bevosita o'qituvchiga xos fazilatlarni shakllantirish uchun imkoniyatlar yetarli. Biz quyida boshlang'ich ta'lim uslubiyati 1-kurs talabalari uchun "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanidan mavzuga bag'ishlangan dars ishlanmasini keltiramiz:

**Mavzu: O'qituvchi**

***Reja:***

1. O'qituvchining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati.
2. O'qituvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi kishi.
3. O'qituvchining pedagogik faoliyati.
4. Pedagogik qobiliyat va maqsad haqida tushuncha.
5. O'qituvchining kasb sifatlari.

**Tayanch so'z va iboralar:** Kasbni va bolani sevish, mas'uliyat, ta'lim-tarbiya, shakllantirish, qiyin, sharafli, fidoiy, muallimga, muhtojlik, ota-onasi singari, qobiliyati, faol, ijodkor, pedagogik-psixologik bilimlar, jamiyat manfaati, madaniy boylik, xazinalar, mafkura, ma'naviyat sohibi, kasb mahorati, pedagogik faoliyat,

tayyorgarlik, metodik, siyosiy, talabchan, kasbiy layoqatlilik, tez fikrlay olish va hokazo. Faoliyat, qobiliyat, layoqat, bilish, tashkilotchilik, nutq, obru orttirish, ta'sir ko'rsata olish, nodir dunyo, ko'ra bilish qobiliyati, sahovatli, ijtimoiy mas'uliyat, odob, jamiyat manfaati, izlanuvchan, tanqidiy nazar bilan yondashish, mehr, sabr-toqat. Maxsus bilimlar, insonparvarlik, burchga sadoqat, mulohazali, o'ziga va boshqalarga talabchan, ziyolilik, birovlarni tinglash, ichki va tashqi go'zallik, so'z va ish birligi, fidoiylik va hokazo.

Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rtaga qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, ma'naviy barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Bu haqda I. A. Karimov "Barkamol avlod orzusi" asarida: "Bilimga chanqoq, iste'dodli yoshlarni topib, ularni Vatanga fidoiy insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifamizdir", - deb ta'kidlangani bag'oyat o'rinli.

O'zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga katta hissa qo'shayotgan ijodkor o'qituvchilar soni yil sayin ortib borayapti. Maktablarda "metodist o'qituvchi", "katta o'qituvchi", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi", "O'zbekiston xalq o'qituvchisi", "O'zbekiston qahramoni" unvonlariga sazovor bo'lgan o'qituvchilar soni ortib bormoqda. O'qituvchilarning sharafli qiyin ishining e'tirofi sifatida I.A.Karimovning "O'z-o'ziga, el ishiga bag'ishlagan, inson tarbiyasiga jon tikkan olijanob o'qituvchilarni, mo'tabar muallimlarni bundan buyon ham boshimizga ko'taramiz", deb bildirgan e'tirofi, hurmati har bir o'qituvchini to'lqinlantiradi.

O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitishi va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

So'nggi yillarda pedagogika kollejlarida o'qituvchilar tayyorlashni takomillashtirishiga qaratilgan ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda.

Chunonchi bo'lajak o'qituvchilarning kasb tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisosiga doir fanlar chuqur o'rganish va pedagogik mahoratni egallash maqsadida "Pedagogik mahorat" kursini fan sifatida o'rganilishi, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'tish masalasiga e'tibor kuchaydi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik, ruxshunoslik, metodikasiga doir fanlarni o'rgatish ko'lami yanada kengayadi.

O'zbekiston respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'limni amalga oshirish g'oyasi o'qituvchi kadrlar tayyorlashga amaliy yordam ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan o'qituvchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishi davlat siysati darajasida ko'tariladi. Bu tadbirlar universitet va pedagogik insititutlarning maxsus fakul'tetlarida, malaka oshirish insititutlarida samarali amalga oshirilmoqda.

O'qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasb hisoblanadi. Bu to'g'risida o'qituvchilik kasbining yosh avlodni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatiga bobomiz A.N.Farobiy shunday fikrni "Baxt-saodatga erishuv va tug'ma qobiliyatlarning rivojlanishi o'z- o'zicha bo'lavermaydi, balki bu masalada qandaydir bir muallim yoki raxbarga muxtojlik seziladi." Haqiqatdan ham o'quvchilardagi qobiliyatlarni rivojlantirishda va tarbiyalashda muallimning xizmatlari beqiyosdir. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zi yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyadan bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qoidalar, umumlashtirilgan metodlar bayon etiladi. Bu to'g'rida rus mashxur pedagogi A.N.Tolstoy "Agar o'qituvchi faqat ishiga havas qo'ygan bo'lsa, u yaxshi o'qtuvchi bo'ladi. Agar o'quvchi faqat ota, onasi kabi havas qo'ygan bo'lsa, u oldingi o'qitkvchidan yaxshiroq bo'ladi. Bordi-yu, ikkala xislatni o'zida mujassamlashtirsa, u holda u mukammal o'qituvchi bo'ladi,"deb juda o'rinli ta'kidlab o'tgan. Haqiqatdan ham ana shu ikki fazilatni o'zida mujassamlashtira olgan o'qitkvchi barkamol insonni tarbiyalay oladi. Afsuski hamma o'qituvchilardan ana shu qimmatli sifat ba'zan shakllanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham O'zbekiston davlatining barcha maktablarda ishlaydigan o'qituvchi:

Pedagogik faoliyatning obro' e'tiborini va ijtimoiy maqomini oshirish yuzasidan davlat siyosati ro'yobga chiqariladi.Ta'lim oluvchilarning va pedagoglarning o'qishi sog'lig'i va dam olishi zarur sharoitlar yaratiladi;

Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Pedagog kadrlarning malakasiini oshirish va ularning qayta tayyorlashning zamon talablariga moslashuvchan, ta'limning yuqori sifati va barqaror rivojlanishni ko'zlovchi tizimi vujudga keltirildi. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasb sifatini qo'llab-quvvatlash ta'minlanadi, va hokazo.

***Pedagog faoliyati***

O'zbekiston respublikasining ta'lim to'g'risidagi Qonunida: "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega",-deb ta'kidlanadi. Haqiqatdan ham tegishli ma'lumotga ega bo'lgan, kasb tayyorgarligi bor, yuksak axloqiy fazilat sohibi bo'lgan sabr-toqatli, mehnatsevar, tinib-tinchimas kishi pedagogik faoliyati bilan shug'ullanadi. Deyarli hamma tarbiya sabr toqatni talab etishni e'tirof etishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat bilan malaka, ya'ni ko'nikma kerak deb o'ylaydilar; lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilishdi", - deb ta'rif berishi o'qituvchi mehnatining mashaqqatligidanligini anglatadi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida javob beradigan, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. O'qituvchi faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. O'qituvchilikni o'rganayotgan yoshlar avvalo o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlarini bilishi kerak. U quyidagilardan tashkil topadi:

1. O'qituvchi shaxsining xususiyatlari;
2. O'qituvchining ruhiy pedagogik tayyorgarligiga quyiladigan talablar;
3. Maxsus tayyorgarlikning mazmuni va hajmi (amaliy);

4. Ixtisosiga doir metodik tayyorgarlik.

**O'qituvchi shaxsining xususiyatlari:**

G'oyaviy sohada: mafkura, ilmiy dunyoqarash va e'tiqod; ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy-ma'naviy boylikni tushunish; ijtimoiy va fuqaroli burchi va mas'uliyatini anglash; ijtimoiy-siyosiy-kasbiy faollik.

Pedagogik kasbi sohasida: o'quvchilarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, kasbni sevish, ruhiy-pedagogik bilmdonlik, ziyraklik va kuzatuvchanlik; pedagogik nazokatlilik (xushmuomilalik); pedagogik tasavvur, tafakkur; tashkilotchilik qobiliyati; haqqoniylik, halollik, samimiylik, haromdan xazar qilishlik, vazminlik, o'zini tuta bilishlik, kasbga layoqatlilik, qat'iyyatlilik, maqsadga intiluvchanlik, kurashuvchanlilik va mehnatsevarlik va hokazo.

***O'qituvchining pedagogik mahoratga ega bo'lishi***

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir **o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur**. Pedagog mahorat egasi oz mehnat sarflab, katta natijaga erishadi. Pedagogik qobiliyat faoliyat natijasida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat, zehn va inson asab tizimida anatomik- fiziologik jihatdan uni tashkil qiladigan bosh miya bo'lmog'i zarur. albatta bu har bir insonda mavjud. Ana shu tabiiy borliqda, zaminda qobiliyat deb deb ataluvchi ruhiy xususiyat taraqqiy etadi. Pedagog faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmoQi va tarbiyalanmog'i darkor: bilish qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, nutq qobiliyati, obru orttirish qobiliyati, to'g'ri muomila qobiliyati, kelajakni yoki mo'ljalni ola bilish qobiliyati, diqqatni taqsimlay olish , madaniyatli va ma'naviyatli bo'la olish qobiliyati, o'quvchilarni seva olish qobiliyati, ta'sir ko'rsata olish qobiliyati, ishontira olish qobiliyati, o'zini tuta olish va boshqarish qobiliyati va hokazo.

***Bilish qobiliyati*** - fanning tegishli sohalariga oid (matematika, ona-tili, kimyo va hokazo) qobiliyat. Bunday qobiliyatga ega o'qituvchi fanni hajmda emas, balki

ancha keng va chuqur, mukammal biladi, unga bu fan qiziq, u ilmiy tadqiqot ishlarini ham biladi.

***Tushuntira olish qobiliyati***-o'qituvchining eng muhim qobiliyatidir. U o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, umuman ta'sir ko'rsata olishdir. Unda o'quvchilar ruhiyatini, qiziqishini, harakatini, kechinmalarini, holatini, nima bilishini yoki bilmasligini, uni yuzaga keltiruvchi sabablarini, uni bartaraf etish yo'llarini, charchaganganini, dam olishga imkon yaratishni va bilishga da'vat etishi shoshmasligi kabi ko'nikmalarni vaqtida, joyida xatosiz bajara olishi nazarda tutiladi.

***Kuzatuvchanlik qobiliyati***-o'quvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyatidir. Bunday o'qituvchining o'quvchining psixologiyasidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez payqay oladi.

***Nutq qobiliyati*** - nutq yordamida o'zining ta'lim-tarbiyasi maqsadini o'quvchilarga anglatishda o'z fikr va tuyg'ularini aniq, ravshan, sodda adabiy tilda (sof) ifodali olishi tushiniladi. O'qituvchi o'rgatayotgan materialni o'zlashtirishda asosan qaysi iboralarga, g'oyalarga, eng muhim qoida va yo'nalishlarga o'quvchilar e'tiborini o'z so'zlari bilan rom eta olish nihoyatda muhim. O'qituvchining nutqi aniq, jonli obrazli, ta'sirchan, talaffuzi yorqin, ifodali, his-hayojonli, unda stilistik va fonetik nuqsonlar bo'lmasligi shart.

***Tashkilotchilik qobiliyati***-birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtira olish, jipslashtirish, muhim vazifalarini bajarishga ruxlantirish, yo'l-yo'riq ko'rsata olish, ikkinchidan o'z ishini (darsini, tarbiyaviy ishini) maqsadga muvofiq tashkil etishni nazarda tutish. Eng muhim vaqtdan unumli foydalana olishi juda muhim.

***Obro' orttira olish qobiliyati*** - o'quvchilarga bevosita emosional - irodaviy ta'sir ko'rsatishdir. Obro' uning fanni yaxshi bilishi, tushuntira olishi, rag'batlantira olishi, jazolay olishi(odil), mehribonligi, o'quvchini tushunishi, muomalasi va mexnati bilan shakllanadi. Uning qalbi samimiy, pok, halol bo'lmog'i shart.

***To'g'ri muomala qila olish qobiliyati*** - o'quvchilar qalbiga to'g'ri yo'l topa olishini belgilovchi muomala, munosabatlar yig'indisi deyish mumkin. Undan

o'qituvchining muomalasi samarasini o'quvchi shaxsiga hurmati belgilaydi desak to'g'ri bo'ladi.

***Oldindan ko'ra bilish qobiliyati*** - o'z va o'quvchilar harakatining, faoliyatining oqibatini ko'ra bilishni, oldindan ilg'ay olishi, bilishi, ya'ni pedagogik ko'ra bilishi nazarda tutiladi. Masalan, ikki o'quvchi janjallashgan paytda qaysi birining aybdorligini aniqlash va hokazo.

***Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati***-o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari - hajmi, kuchi, kuchuvchanligi, safarbarligi, tezligi kabilirning taraqqiy etishi bilan izohlanadi. Eng muhimi o'qituvchi doimo pedagogik faoliyatida o'zi bajarayotgan (bayon qilayotgan fikr, so'z, g'oya) ishiga va uni tinglayotgan o'quvchilarning butun hatti-harakatlari, holatlariga o'z diqqatini taqsimlay olishga e'tiborini qaratmog'i shart. Buning uddasidan chiqa olmasa, haqiqiy o'qituvchi bo'la olmaydi. U xohlagan vaqtda to'xtashi va xohlagan vaqtda o'z faoliyatini davom etishi shart.

***Ta'sir ko'rsata olishi qobiliyati***-bu qobiliyat o'qituvchining eng asosiy qobiliyatidir. U ta'sir ko'rsatishi uchun o'quvchisini va o'sha paytdagi o'quvchining holatini, qalbini yaxshi bilmog'i darkor. O'qituvchi o'quvchiga ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsata olmasa, uning barcha harakatlari zoya ketadi. O'qituvchi iloji boricha ijobiy tomondan o'quvchiga ta'sir ko'rsatsin. Yomon ta'sir ko'rsatsa, albatta uni yo'qotishni keyinchalik amalga oshirishi kerak bo'ladi.

Yuqoridan ta'kidlab ko'rsatilgan boshqa qobiliyatlarni ham o'qituvchi o'zida shakllantirishi uning pedagogik faoliyatini samarali olib borishni ta'minlovchi shartlardan sanaladi. Bu shartlarni o'qituvchi nazariy jihatdan anglashi hamda amaliyotda kamchiliklarsiz ya'ni pedagogik qoidalar asosida qo'llay olishi nihoyatda muhim.

Tarbiyachining mahoratini (mukammalligini) tubandagilar tashkil etadi: Turli pedagogik sharoitda (vaziyat) jamoa va ayrim o'quvchilar dunyosida sodir bo'lgan voqyealarni to'g'ri qabul qilish ko'nikmasi; "maqsad-vosita-natija" larni taqqoslab tahlil qilish ko'nikmasi; talab qilish va ishontira olish ko'nikmasi; tezda mo'ljalni

olish va diqqatni yo'naltira olish ko'nikmasi; bolalar bilan o'ynay olish qobiliyati; vaziyatga har tomonlama to'g'ri baho berish ko'nikmasi;rang-barang pedagogik asoslaridan (dalillar) eng muhimlarini ajrata olish ko'nikmasi; tasodif dalildan asosiysini aniqlash ko'nikmasi; bir va har xil vaziyatlarda ta'sir ko'rsatishning turli-tuman usullaridan foydalanish ko'nikmasi; o'z kayfiyati, hissiyoti, gapi (harakatlari), yuz (aft), harakatlarini aniq ko'rsata olish malakasi.

***O'qituvchining kasbiy sifatlari***

"Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi".

E'tiqod odob, fuqarolik burchini anglash o'quvchining asosiy sifatlaridan biridir. Bolalarga mehr-muhabbat uning eng muhim fazilatidir. Uning muhim fazilati ko'pchilik bilan muomila qila olishdir.

O'qituvchining odobi, madaniyati yuksak bo'lsagina odamlarga nisbatan mehribon, sahovatli bo'la oladi, uni hamma hurmat qiladi. U pedagogik etikaning normalarini o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslash lozim.

Bu axloqiy e'tiqod o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarda, o'quvchilar va boshqalar bilan munosabatlarda, muomilasida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy (barcha tarkiblar bo'yicha) ta'sir o'tkazish ko'zga tashlanadi.

Axloq nazariyasida yaxshilik eng muhim kategoriya hisoblanadi.Unda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi manfaatlarining birligi, muallim va o'quvchi maqsadining birligi aks etadi.

Yaxshilik fazilati ikkala tomonning ham yaxshi niyatli, xayrihoh, mehribon bo'lishini taqozo qiladi.

Shaxs axloqini xarakterlaydigan belgilaridan biri mas'uliyatdir. Uning mas'uliyati - mas'uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga

oladi. O’qituvchi zimmasiga bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish mas’uliyati yuklanadi.

Muallim sinfda jamiyatning vakili sifatida o’quvchilar jamoasi bilan yolg’iz o’zi ish olib boradi.

Pedagogik odobga ega bo’lgan o’qituvchi, o’quvchilar orasida obro’ qozonadi. U qanchalik ko’p obro’ qozonsa, ta’lim-tarbiya mohiyatan shunchalik, samarali ta’sir ko’rsatadi.

Xullas obro’ o’qituvchilik faoliyati uchun zarur xususiyatdir. Obro’ uning chuqur bilimi, yuksak axloqiy sifatlari, hayot tajribasi, ilmiy tadqiqot va jamoat ishlarida faol ishtirok etishi tufayli orttirilgan, ko’pchilik tomonidan e’tirof etilgan ta’siri, nufuzidir.

Pedagogik faoliyat o’z mohiyatiga ko’ra ijobiy xarakterga ega. Ma’lumki, inson oldida bular muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug’iladi.

Pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajriba va izlanuvchanlikdir. U muammoli vaziyatlarga boydir. Ilg’or pedagogik tajriba deganda biz o’qituvchining o’z pedagogik vazifasiga ijobiy yondashishni, o’quvchilarning ta’lim-tarbiyasida yangi, samarali yo’l va vositalarni qidirib topishni tushunamiz. Ilg’or pedagogik tajribani o’rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o’quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o’zgarishlar kiritadi.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o’qituvchining ijodkor bo’lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olish, fan yutuqlarini o’quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o’quvchilarni ham ijobiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o’rgata olishini talab qiladi.

### Kasb madaniyatining eng zarur sifatlari:

Xushmuomilalik, e’tiborli bo’lish, mehribonlik, o’z-o’ziga talabchanlik, donolik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, o’z kasbi va burchiga sadoqat, ziyolilik, munozaraga kirisha olish, mulohazali bo’lish, baynalminallik, tejamkorlik, yaxshi va yomonni tez farqlash, go’zallik va xunuklikni ajrata olish, mustaqillik, o’zgalarga

g’amxo’rlik qila olish, birovlarni tinglash, fikrini bo’lmaslik, iboli, iymonli bo’lish, to’g’ri, pok, tashqi va ichki go’zallik, bilimdonlik va hokazo.

**Pedagogik mashq**

Maktab amaliyoti tajribasida pedagogik faoliyatdagi ba’zi jihatlarni baholang. Bunday holatni tipik hol deb hisoblash mumkinmi?

Maktab amaliyotida o’qituvchilar mehnatining natijasi o’quvchilarga ta’lim tarbiya berish va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash bilan hal etiladi. Ammo maktab faoliyatida ba’zan faqat nomigagina ishlaydigan o’qituvchilar mavjudligi umumiy maqsadni amalga oshirishga xalal beradi. Bu toifadagi o’qituvchilar o’z iste’dod va qobiliyatlarini ishga solishga harakat qilishmaydi. Hamda ularning mehnat natijalari ham shunga yarasha bo’ladi.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. O’qituvchilik kasbiga qanday vazifalar yuklatilgan?
2. Nima uchun o’qituvchilik kasbi qiyin, murakkab va shu bilan birga sharafli?
3. O’qituvchilik kasbini qanday tasavvur qilasiz?
4. Siz kelgusida qanday o’qituvchi bo’lmoqchisiz?
5. Pedagogik faoliyatni qanday tushunasiz va uni samarali tashkil etishda qanday muammolar mavjud hamda ularni qay tarzda hal etish mumkin?
6. Nima uchun o’qituvchi yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi kishi?
7. Pedagogik faoliyatning samarasi nimalardan tashkil topadi?
8. Pedagogik qobiliyat nima va uning qanday turlari mavjud?
9. Pedagogik mahorat qanday elementlardan tashkil topgan va pedagogik faoliyatida qanday ahamiyat kasb etadi?
10. O’qituvchining kasb sifatlari nima va u qaysi elementldardan tashkil topadi?
11. Kasb sifatlari qanday shakllanadi va uni tarkib toptirishda qanaqa muammolar mavjud?
12. Sizningcha o’qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda qanday muammolar bor va ular qanday hal etilishi mumkin?

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida dars jarayonida ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish – ko’p jihatdan oliy maktab o’qituvchisining kasbiy mahoratiga, bilimiga, saviyasiga bog’liq. Shu bois oliy ta’lim tizimida ijodkor, qobiliyatli, bilimli, yuqori saviyali, dunyoqarashi keng, fikri teran professor-o’qituvchilar dars berishi davr talabi bo’lib qolmoqda.

## 2.2. Auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shaklantirishning yo'llari

Auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlar oliy o'quv yurtlari tarbiyaviy tizimining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini ta'lim-tarbiya maqsadiga xizmat qiladi. Auditoriyadan tashqari tadbirlar mazmuniga qarab turli shakllarda tashkil etiladi. Jumladan: kechalar uyushtirish, tantanali kunlarni nishonlash, mushoiralar uyushtirish, sayohatlar tashkil etish, mehnat, urush veteranlari bilan, ilm-fan, madaniyat, san'at arboblari bilan uchrashuvlar o'tkazish.

Audtoriyadan tashqari mashg'ulotlar o'quv dasturlaridagi mavzular, boblar, bo'limlar mazmuni bilan bog'liqlikda har bir o'quv haftasi, oylik bosqichiga mos tashkil etilsa, olgan bilimlarini kengaytirishga, boyitishga xizmat qiladi.

Talabalarda o'qituvchiga xos axloqiy sifatlarni o'stirish vaqtli ommabop adabiyotlarni o'qishga qiziqish uyg'otish maqsadida kafedralar, dekanat va jamoat tashkilotlari, xalq ta'limi va odob-axloq masalalariga doir mavzularda munozara va konferensiyalar uyushtiradi. Talabalar o'zlari egallayotgan mutaxassislikka doir fanlarni chuqur o'rganadilar, kafedra o'qituvchilari bilan birlikda o'quvchilar olimpiadalarini tashkil etish va o'tkazishda, har xil turnirlar va konkurslarda, fan olimpiadalarida ishtirok etadilar. Talabalar yozgi oromgohlarda amaliyotni o'tashga puxta hozirlik ko'radilar. Tarbiyaviy tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish turli o'yinlarni uyushtirish metodikasini egallaydilar.

Matbuot, radio, televideniye, badiiy adabiyot, kino, teatr, ommaviy sport ishlari talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Oliy o'quv yurtlarida tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshiruvchi zarur shartlardan biridir. Tarbiyaviy tadbirlar rejasining asosiy vazifasi tarbiyaviy tadbirlarni ma'lum bir tizimga keltirish, aniq maqsadga yo'naltirish, tarbiyaviy jarayonda izchillik, uzviylik, ketma-ketlikni ta'minlash, talabalarni tarbiyalash sohasida ilg'or tajribalarni umumlashtirishdan iborat.

Keyingi yillarda oliy maktablarda talaba-yoshlarni yuksak axloqiy fazilatli mutaxassislar qilib tarbiyalash dasturlari va tarbiyaviy ishlarning istiqbolli rejalarini

tuzish odatga aylanadi. Tarbiyaviy tadbirlarning izchillik bilan bajarilishi natijasida talabalarning dars o'zlashtirishi yaxshilab boradi.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarni axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladigan asosiy tadbirlar tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi. Oliy o'quv yurtlarida o'tkaziladigan tadbirlar:

- ta'lim – tarbiya ishlarini takomillashtirishga doir masalalarni muhokama qilishga bag'ishlangan ilmiy kengashlarning yig'ilishlari;
- o'qishga yangi qabul qilingan yigit va qizlar bilan o'tkaziladigan talabalikka bag'ishlov marosimi;
- oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, barcha xizmatchilari va jamoat tashkilotlari ishtirokida o'tkaziladigan majlislar, konferensiyalar;
- an'anaviy bayram kunlari o'tkaziladigan sayllarda talabalar, professor-o'qituvchilar va xizmatchilarning qatnashishi;
- badiiy havaskorlik to'garaklarining ko'riklari va san'at festivallari;
- sportning turli xil turlari bo'yicha musobaqalar va ommaviy poygalar o'tkazish;
- bitiruvchi kurs talabalari bilan o'qituvchilikka bag'ishlov marosimini tayyorlash, o'tkazish va boshqalar.

Talabalarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash uchun ularning kasbiy yo'nalishi va axloqiy qiyofasini ko'rsatib turuvchi, tanlangan kasbi sohasida ishlashga, uni puxta egallashga psixologik va amaliy tayyorgarlik ko'rsatuvchi umumiy belgilarga asoslangan bo'lmog'i lozim.

Talabalar bilan olib borilgan tarbiyaviy ishlarning holatini quyidagi ko'rsatkichlarda bilib olish mumkin:

■ o'quv mashg'ulotlari jarayonida va o'qishdan tashqari ishlarda talabalarning tartib-intizomi, talabalarning o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarga davomati, o'quv va jamoat ishlari sohasida berilgan topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish;

■ talabalarning o'zlashtirish sifati, ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashish darajasi;

■ pedagogik amaliyotning natijalari;

■ talabalarning oliygohdan tashqari paytdagi xulqi, yotoqxonalarda, foydali mehnatda, sayohatlar paytida o’zini tutishi.

Ushbu ko’rsatkichlar bo’yicha ta’lim-tarbiya ishlarini chuqur va atroflicha tahlil qilish talabalarning tarbiyalanganlik darajasini xolisona baholashga imkon beradi.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari bilan auditoriyadan tashqari o’tkaziladigan tadbirlardan biri tarixiy joylarga sayohat hisoblanadi. Quyida pedagogika fakulteti 101, 102, 103-BTU guruhlari bilan ko’hna va hamisha navqiron Samarqandning Ulug’bek rasadxonasi va uning atrofiga, Shohizinda majmuasiga qilingan ekskursiya tahlilini keltiramiz.

**Ulug’bek rasadxonasi va uning atrofidagi bog’lar atrofiga qilingan ekskursiya tahlili**

**Maqsad:** Talabalarga Ulug’bek rasadxonasi va uning atrofidagi bog’lar to’g’risida tushuncha berish va ularga Ulug’bek merosidan faxrlanish hamda milliy g’ururini oshirish.

Ekskursiyaga pedagogika-psixologiya yo’nalishidagi talabalarni olib borish mumkin.

**Ekskursiya rejasi:**

1. Mirzo Ulug’bek davrida ilm va fanning taraqqiy etishi hamda suhbat.
2. Ulug’bek qurdirgan madrasalar to’g’risida talabalarga ma’lumot berish.
3. Ekskursavodning yordami bilan rasadxona va atrofidagi bog’larni tamosho qilish.
4. Ulug’bek rasadxonasida faoliyat ko’rsatgan olimlar faoliyatini o’rganish.
5. Ekskursiya bo’yicha savol-javob o’tkazish.
6. Ekskursiya bo’yicha hisobot tayyorlash, uni tahlil qilish.

Ekskursiya davomida talaba-yoshlar ongiga suhbat jarayonida quyidagilarni yetkazdik:

Mirzo Ulug’bek o’z atrofidagi olimlarning yordamida 1424-1428 yillarda Obirahmat anhori bo’yida rasadxona qurdiradi. Bu inshootning aylanasi 47 metr,

balandligi 31 metr bo'lgan. Z.M.Boburning guvohlik berishicha bu imorat uch qavatli bo'lgan. Binoning sirtqi qismi koshinlar hamda parchinlar bilan qoplangan. Ichki qismi sudsi faxriy (seketant) va koridorlar bilan to'rt qismga bo'lingan. Rasadxonaning asosiy o'lchov asbob-uskunasi bo'lgan seketant G'iyosiddin Jamshid boshchiligida o'rnatilgan. Rasadxona qoshida o'sha davrning boy kutubxonasi bo'lgan. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda ushbu kutubxonada o'n besh ming jild kitob saqlangan. Rasadxonaning etagida ikkita chorbog' bunyod etilgan. Mahalliy arxeologlarning yordami bilan qadimshunos V.M.Vyatkin 1908 yilda Ulug'bek rasadxonasining xarobalarini topadi. Rasadxonada Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid, Koshoniy, Ali Qushchi kabi mashhur olimlar faoliyat ko'rsatgan. Rasadxonada olib borilgan kuzatishlar natijasida 1018 ta qo'zg'almas yulduzning o'rni va holati aniqlangan.

O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bo'ylab joylashgan 683 geografik punktlarning Samarqand kengligiga nisbatan koordinatalari belgilab chiqildi. Rasadxonada olib borilgan kuzatishlar natijasida Ulug'bek o'zining "Ziji jadidi Ko'ragoniy" (Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali) asarini yozdi. Ulug'bekning astronomik jadvali o'sha davrdagi jadvallar orasida yuksak darajada aniqligi bilan ajralib turgan. Uning yil hisobi hozirgisidan bor yo'g'i bir minut ikki soniyaga farq qilgan.

Alisher Navoiy Ulug'bekka yuksak baho beradi va quyidagi misralarni yozib qoldirgan:

*Temirxon naslidan Sulton Ulug'bek,*
*Ki olam ko'rmadi sulton oningdek.*
*Bilib bu nav' ilmi Osmoniy,*
*Ki ondin yozdi "Ziji Ko'ragoniy".*
*Qiyomatga deganda ahli ayyom,*
*Yozarlar oning ahkomidan ahkom.*

Taniqli fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim Volter (1694-1778) “Ulug’bek Samarqandda bo’lib akademiyaga asos soldi yer sharini o’lchashga buyurdi va astronomik jadvallarini tuzishda ishtirok etdi”, - deb yozgan edi.

Ulug’bek rasadxonasining qurilishi to’g’risida XV asr muarrixi Abdurazzoq Samarqandiy yozib qoldirgan.

**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:**

1. Ulug’bek rasadxonasi to’g’risida nimalarni bilasiz?
2. Rasadxonaning qurilishi haqida qaysi tarixchi yozib qoldirgan?
3. Rasadxonada qanday olimlar faoliyat ko’rsatgan?
4. Ulug’bekning astronomiyaga bog’langan asarida qancha yulduzning nomi aniqlangan?
5. Ulug’ fransuz olimi Volter Ulug’bekning faoliyatiga qanday baho bergan?
6. Alisher Navoiyning Ulug’bekka bag’ishlangan misralarini sharhini yozib keling.
7. Ekskursiya bo’yicha albom tuzing.

**Shohi Zinda ansambiliga qilingan ekskursiya tahlili**

**Maqsad:** Talabalarga Shohi Zinda ansambili to’g’risida tushuncha berish. Ularda o’lkamiz tarixi va madaniy yodgorliklariga qiziqish uyg’otish. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. (Ekskursiya barcha yo’nalishdagi talabalarni olib borish mumkin).

**Ekskursiya rejasi:**

1. Shohi Zinda ansambili to’g’risida talaba-yoshlarga ma’lumot berish.
2. Ekskursavodning ko’rsatmasi bilan ansambildagi muhim joylarni tamosha qilish.
3. Ekskursiya bo’yicha savol-javob o’tkazish.
4. Ekskursiya bo’yicha albom tuzish, natijalarni tahlil qilish.

Ekskursiya davomida talabalarga suhbat davomida quyidagilarni yetkazdik:

Shohi Zinda ansambili Afrosiyob tepaligi janubida, qabristondagi maqbaralardan iborat. Ularning eng qadimgisi Husan ibn Abbos maqbarasidir. Ma'lumotlarga qaraganda Muhammad payg'ambarning amakivachchasi Abbosning o'g'li, Samarqandga 676 yilda islom dinini targ'ib etish uchun arab istilochilari bilan birga kelib, shu yerda o'ldirilgan va dafn etilgan) bo'lib, uning atrofiga mo'tabar kishilar dafn etilgan. Mo'g'ul bosqinchilar davrida bu yer vayron qilingan. Amir Temur va Ulug'bek davrida bu yerda qurilish ishlari amalga oshirilgan. Bu yerdagi inshootlar ko'pchiligi XIV asrga taalluqlidir. Ansambilning bosh darvozasini Ulug'bek hijriy 838 yilda (melodiy 1434-1435) o'g'li Abdulazizga atab qurdirgan. Shimol tomondagi kichik madrasa hijriy 1228 yil (melodiy 1812-1813) yilda Samarqand hokimi tomonidan qurilgan. Katta zina oldidagi ikki gumbazli maqbara Temur xonadoniga mansub O'lja oyim qabri ustiga qurilgan. Zinadan ikkinchi chortoq va dahlizga chiqiladi. Bu yerda 1375-1376 yillarda Tug'li Tekin maqbarasi qurilgan. Ikkinchi maqbara Amir Temurning singlisi Shirinbeka oqa maqbarasidir. Uning qarshisida Amir Temurning onasi Turkon oqa qurdirgan masjid-xonaqoh, maqbara, chortoq, uning yaqinida usta Muhammad Shayx ibn Hojibek Tabriziy tomonidan 1405-06 yillarda qurilgan Tumon oqa maqbarasi bor. XI asrning oxirlarida qurilgan Husan ibn Abbos maqbarasi ikki bino: go'rxona va masjiddan iborat. Ansambil tarkibidagi 20 dan ortiq inshootlar davlat muhofazasiga olingan.

Mustaqillik yillarida davlatimiz rahbari Islom Karimovning tashabbusi bilan ushbu ansambilni ta'mirlash uchun yetarli miqdorda mablag' ajratildi, tegishli qaror qa'bul qilindi. Natijada ko'rib turganingizdek, ushbu yodgorlik va uning atrofi o'zgacha bir manzara kashf etdi.

**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:**

1. Shohi Zinda ansambili Samarqandning qaysi qismida joylashgan?
2. Bu yerda Muhammad payg'ambarimizning yaqinlaridan kim dafn etilgan?
3. Shohi Zinda atamasining lug'aviy ma'nosini daftaringizga yozib qo'ying.
4. Temuriylardan kimlar bu yerda qurilish ishlariga alohida ahamiyat bergan?

5. Mustaqillik yillarida ushbu tarixiy obidani ta’mirlash to’g’risidagi qarorning mazmuni bilan tanishing va daftaringizga yozing.

Bu yo’nalishdagi sayohatlar bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida milliy tarixmizga hurmat hissini, milliy g’ururni shakllantiradi. Shuningdek, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

## 2.3. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari

Ilg'or ijodkor pedagoglar tomonidan an'anaviy ta'lim texnologiyasidagi kamchiliklarga javob topish, samarali uslublarini takomillashtirish, o'quvchining aqliy mehnatini amalga oshirish usullarini izlashlari natijasida o'ziga xos ta'lim usuli vositalari yaratildiki, buning oqibatida yangicha pedagogik fikrlash tarzi vujudga keldi. Ana shu izlanishlar zamirida yangi pedagogik texnologiyaga asos solgan pedagogik texnologiyalar yaratila boshlandi. Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni bir tizimga solish, unga maqsadli yo'nalish berish ta'limni amalga oshiridagi shakl va mazmun yaxlitligini ta'minlagan holda kutilishi zarur natijani olishni belgilaydi. Ta'limga testlarning joriy etilishi, diagnoz va diagnostik tahlilning kiritilishi, monitoring nazoratini yuritilishi, bilimlarni reyting tizimida baholashga o'tish, fanning bob, bo'lim mazmunini yaxlit holda o'zlashtirishni modellashtirish, tizimga solingan nazorat turlarida o'quvchilarning ishlashi va nihoyat noan'anaviy dars shakllarining vujudga kelishi o'quv jarayonidagi an'anaviy ta'lim o'rniga vujudga kelgan yangi pedagogik texnologiyalar bo'lib, ular yangicha fikrlash tizimidagi ta'limga o'tishni taqozo etadi,

Hozirgi davrda o'quv mehnati ham boshqa mehnat turlari kabi o'ziga xos bilim, ko'nikma va malakalarini shaxsda shakllantirishini talab qiladi, buning uchun esa iroda, diqqat, kuzatuvchanlik, fikr yuritish, xayolparastlik kabi shaxsiy sifatlarning tarbiyalanganligi zarur.

Hozirgi dolzarb muammolardan biri yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish, zamon talabi darajasida tadbirkorlik qobiliyati shakllantirish, pedagog va muhandis-pedagoglarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish bo'lib qolmoqda.

Ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillarni to'xtovsiz tahlil qilish, mutaxassislarning uzluksiz malakasini oshirish hmda qo'yiladigan uslublarning nechog'lik mosligiga to'g'ri baho berish tamoyillarini belgilashimiz va ta'limning

olinishi zarur bo’lgan natijasini iodalay olishimizga ko’rsatadigan yo’l hisoblanadi. Mana shu tamoyillarga tayanib ta’lim jarayoni samarali bo’lishini ta’minlaydigan texnologiya yangi zamonaviy pedagogik texnologiya hisoblanadi.

Ta’limning amalga oshirish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologilarni kiritish quyidagilarga asoslanadi:

- Ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi o’quvchi-talaba shaxsi ustuvorligini ta’minlash;
- Ta’lim maqsadining natijaga erishuvini (kafolatlanganligini) amalga oshirish;
- Ta’lim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish;
- Ta’lim mazmunini ta’minlovchi vosita, usul shakllari texnologiyasini bir tizimga keltirish.

**Pedagogik texnologiya.** “Texnologiya” atamasi yunoncha so’z bo’lib, “techne” - mahorat, san’at va “logos” – tushuncha, o’rganishni anglatadi. Demak, texnologiya – hunar, san’at ma’nosini bildiradi va jarayonlarni amalga oshirish usullari hamda vositalari haqidagi bilimlar yig’indisi, shuningdek obyektda sodir bo’ladigan sifat o’zgarishlar tushuniladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasiga berilgan ta’riflar xilma-xil bo’lib, ular quyidagicha ta’riflanadi:

- Pedagogik texnologiya – bu, ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o’zaro ta’siri inobaatga olib o’qitish va bilim o’zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo’llashning tizimli usulidir (YuNESKO).
- Pedagogik texnologiya – bu, o’qituvchi amaliyotga joriy etish mumkin bo’lgan pedagogik tizim loyihasidir (V.P.Bespalko).
- Pedagogik texnologiya, pedagogik maqsadlarning ro’yobga chiqishi uchun foydalaniladigan shaxsiy, uskunaviy vositalarning tizimi majmuasini va faoliyat ko’rsatish tartibini bildiradi (M.V.Klarin).

- Pedagogik texnologiya – ta'limda rejalashtirilgan maqsadlarga erishish jarayonining tavsifidir (I.P.Volkov).

- Pedagogik texnologiya – bu, o'qituvchining ta'lim-tarbiya vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda va ma'lum ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatishi va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini jadal shakllantirish jarayonidir (N.S.Saidaxmedov).

Pedagogik texnologiyalar bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirsak pedagogik texnologiya mazmuni, pedagogning kasbiy faoliyatida eng zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalanilgan holda o'qitish samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim olish sifatini yaxshilash, talab etilgan bilim darajasiga erishish uchun ta'lim jarayonini oldindan loyihalashtirishdan iborat deb tushunish mumkin. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

**Pedagog kadrlarga qo'yiladigan zamonaviy talablar.** Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlovchi pedagogga qo'yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi. Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy talablar quyidagilardan iboratdir:

- Ta'lim berish mahorati;
- Tarbiyalay olish mahorati;
- O'quv – tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiyat fazilati;
- Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila bilish mahorati.

Umumlashtirilgan model doirasidagi malakaviy zamon talablari pedagog "Qiyofa"sini ifodalaydi.

Ushbu zamonaniy metodlar yoki interfaol usullar, o'qitishning samaradorligini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talabalar ma'naviyatini shakllantirish va ularni. mantiqiy, ijodiy, tanvidiy, mustaqil fikrga, qobiliyatlarini rivojlantirishga,

raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Ushbu o'quv jarayonini tashkil etish uchun havola etilgan texnologik treninglarni xuddi shu tartibda, o'tkazishlari shart emas, har qaysi o'qituvchi bu treninglarni umumiy shaklni olgan holda o'zlarining dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan treninglarni to'liq yoki ularning ba'zi bir bosqichlari, elementlarini ishlatishlari mumkin.

Biz quyidagi o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglar (texnologiyalar)ga tavsifnoma berib, ba'zilarni o'tkazish tartibi to'g'risida metodik tavsiyanoma berib o'tamiz. Ushbu trening mashg'ulotlar va ularda qo'llanilgan barcha interfaol usul va vaziyatlar oliy pedagogika instituti xodimlari va tinglovchilari tomonidan tavsiya etilgan.

Trening mashg'ulot: Muammoli vaziyatlarni hal qilish mashqlari.

**1-topshiriq**: Muammoli vaziyat: Viloyatning uzoq tumanidan o'qishgv kelgan I kurs talabasi zararli odatlar ta'siriga tushib qoldi oqibatda xomiladorlik holati yuzaga keldi.

A. "Aqliy hujum" orqali muammoni aniqlash.

V. "Nima uchun?" metodi asosida vaziyatni aniqlashtirish.

Ushbu vaziyatni kelib chiqishiga sabab bo'luvchi zararli odatlar, ularga yo'liqtiruvchi omillar ushbu organayzer asosida tahlil qilinadi.

**"Nima uchun" sxemasi asosida ishlash uchun yo'riqnoma**




Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqadigan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoning yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va

yo'qotish talab etiladi. Talabalarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema talabalarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Talabalarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**«Nima uchun?» sxemasiga asosan talabalar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi**

**1-bosqich**
Vaziyatni kelib chiqishiga sabab bo'luvchi zararli odatlar, ularga yo'liqtiruvchi omillar

⇓

**2-bosqich**
Vaziyatdan chiqishning qonuniy va ma'naviy asoslari

⇓

**3-bosqich**
Muammoning hal qilinishi yo'llari

Yakka tartibda yoki guruhlarda muammo shakllantiriladi. Nima uchun? so'rog'i bilan strelka chiziladi va savolga javob yoziladi. Qayta-qayta «nima uchun» degan savol berib boriladi, 1-bosqich muammoni keltirib chiqargan ildiz yashirin sababi topilguncha davom ettiriladi.

**Topshiriqni bajarish uchun namuna:**

**Axloqiy madaniyat jarayonini samaradorligini oshirish muammosi**

**Nima uchun axloqiy madaniyat samaradorligi past?** → **Axloqiy madaniyat jarayoni yuzakilikka ega** → **Axloqiy madaniyatda asosan xulq-atvor va muomala madaniyatini tarbiyalashga** ↓

**Axloqiy madaniyat jarayonida nasihatga, ibratga asoslanamiz** → **Axloqiy madaniyat jarayoni samaradorligini** → **Yangi samarali usullarni ishlab chiqish uchun yangi yomdashuvni ishlab**

S."Qanday?" iyerarxik diagrammasi orqali yuqoridagi muimmoning 2-3 bosqichlari amalga oshiriladi:

■ Vaziyatdan chiqishning qonuniy va ma'naviy asoslari? Qanday?

■ Muammoning hal qilinishi yo’llari? Qanday?

**«Qanday?» iyerarxik diagrammasi asosida ishlash uchun yo’riiqnoma..**

«Qanday?» iyerarxik diagrammasi asosida faoliyatni tashkil etish qoidalari:

1. Vujudga kelgan muammoni sababini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo’llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o’rganish muhim vazifalardan biridir. «Qanday?» iyerarxik diagrammasi ana shunday hollarda samarali natija beradi.

«Qanday?» iyerarxik diagrammasi muammo haqida butunligicha umumiy tasavvurga ega bo’lishga imkon beradigan savolarning mantiqiy zanjiri ko’rinishida namoyon bo’ladi.

Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo’yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o’rganamiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi, Muammoni hal etishning quyi darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro’yxatiga mos bo’ladi.

2. Uylamay , baholamay va ularni o’zaro solishtirmay tezlikda barcha g’oyalarni yozish lozim bo’ladi.

3. Diagramma hyech qachon tugallanmaydi: unga yangi g’oyalarni kiritish mumkin bo’ladi.

4. Agarda savol sxemada bir qancha «shohlar»da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni xal etishning muhim qadami bo’lishi kerak.

5. Yangi g’oyalarni qanday grafik ko’rinishda qayd etishni o’zingiz tanlab oling (daraxt, kaskad va boshq.) Bunda muammo shajarasi ko’z oldingizda namoyon bo’ladi.

6. To’g’ri mulohaza qilish va xulosalar chiqarish orqali muammoning yechimini topish yengil kechadi.

**Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

**2-topshiriq: Muammoli vaziyat:** 4- kurs talabasi oilaviy sharoiti tufayli (turmushga chiqqan, bir farzandi bor) darslarga o'z vaqtida qatnay olmayapti. Oliygoh bilan oila o'rtasida nomutanosiblik vujudga keldi. Sizning harakatingiz...

**3-topshiriq: Muammoli vaziyat:** 3-kursda pedagogik amaliyeyoni o'tab qaytgan guruh a'zolari asta-sekinlik bilan Ruxsoradan chetlasha boshladilar. Yakkalanib qolgan Ruxsora o'z joniga qasd qildi.... Nima uchun? Bu holatni oldini olish mumkinmidi? Qanday?

**4-topshiriq: Muammoli vaziyat:** 47- guruh talabalarining o'zlashtirish natijalari pasayib ketdi. O'zlashtirish pasayishiga sabablarni aniqlang va muammoni hal qilish yo'l-yo'riqlarini izohlang.

Ushbu vaziyatlar ham xuddi yuqoridagidek guruhlarda muhokama qilinib, turli interfaol usullardan, organayzerlardan foydalangan holda, ijodiy yondoshuv asosida yechiladi va guruh a'zolari tomonidan taqdimot qilinadi. Trening mashg'ulotlar davomida muhokama jarayonlari va taqdimotga alohida e'tibor qaratilada.

**5-topshiriq. Muammoli vaziyat:** Rahbarning pedagogik qiyofasi.

Yangi ishga kelgan xodimning ish uslubi rahbarni qoniqtirmaydi. Rahbar unga muloqot madaniyatini shakllantirishga yordam beruvchi bir necha adabiyot bilan tanishib chiqishni tavsiya qiladi.

A) Yangi xodimda qanday kamchilik bor edi?

B) Ushbu vaziyatda rahbar qiyofasini izohlang.

B) Rahbarning pedagogik qiyofasi uning ijobiy va salbiy taraflariga misollar keltiring (hayotiy, badiiy obrazlar).

**Maqsad:**

- Rahbar faoliyatidagi "pedagoglik" qiyofasi xususidagi bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash;

-Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va muammoli ta'lim texnologiyasi orqali o'quv muammosini hal ztishda pedagogning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

-bilimlarni o'zlashtirishda va singdirishda innovasion xususiyatlarga; kreativlik, akmeologik va refleksiv xususiyatlarga tayanib ish yuritishga o'rgatish;

- izlanuvchanlik, mantiqiy tafakkur, ijodiy faoliyat, aqliy kamolot uyg'unligini rivojlantirish.

**Guruhda ishlash/prezentasiya**:

Talaba ma'naviyashni shakllantirishda ibrat, namuna bulish pedagog shaxsining ijtimoiy pedagogik faoliyatidagi o'ziga xos qirralaridan biri.

Pedagogning psdagogik-psixologik qiyofasi ijgimoiy-iqtisodiy munosabatlar uyg'unlashgan bir davrda o'zining murakkablashuvi va serqirraligi bilan alohida yondoshuvni talab qiladi. Jamiyatda shaxsning bir necha qiyofasi tahlil qilinganidek, pedigogning ham bir necha qiyofasi tahlil qilinadi. Bular – pedagog-o'qituvchi, pedagog-rahbar, pedagog-ota-ona, pedagog-jamiyat a'zosi, pedagog jamoa a'zosi va h.k. Pedagog-rahbar.

Shaxs qaysi rahbarlik lavozimda faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar u o'zining psixologik holatidan kelib chiqqan holda, boshqalar uchun pedagog sifatida pedagogik takt va stildan foydalanib qo'l ostidagi xodimlarga ibrat-namuna bo'lish orqali umumjamoaning faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Ana shu nuqtai nazardan yondoshiladigan bo'lsak, har bir rahbar o'ziga xos xususiyatlarni boshqaruv jarayonida bevosita va bilvosita qo'llab kelishi natijasida ma'lum bir yutuq hamda kamchiliklarga erishadi. Rahbarning erishgan yutuqlari bu uning rahbarlik taktikasi hamda mahoratidan darak beradi. Lekin u o'zi sezmagan holatda yo'l qo'ygan kamchiliklari uning individual xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bunga asosiy sabab rahbarning rahbar sifatida pedagogik mahorati yetishmasligi hamda xodimlarning psixologik holatini anglamasligi yoki bo'lmasa boshqaruv psixologiyasida malakalarni shakllanmaganligida ko'rish mumkin.

Rahbarning pedagogik qiyofasi bevosita xodimning dunyoqarashi va ma'naviyatiga ta'sir etadi. Pedagogik qiyofa xar bir xatti-harakatda ko'zga tashlanib u xoh yakka xodim bilan xoh jamoa bilan munosabatga kirishganda namoyon bo'ladi. Rahbar tomonidan berilayotgan topshiriq yoki vazifani xodim tomonidan anglanganlik

darajasi rahbarning pedagogik takti yoki yondoshuvi orqali namoyon bo'lsa, xodim faoliyatini nazorat qilishi uning boshqaruv stiliga kiradi. Barchasi boshliq ma'naviyati va uning ibrat, namuna bo'la olish qobiliyatiii aks ettiradi.

**6-topshiriq. Muammoli vaziyat:** Pedagog-shaxs. (ota, ona, farzand, jamiyat a'zosi) "Odam uz farzandlarining yil sayin o'sib, kamol sari ketayotganini biladiyu, o'z ota-onasining yil sayin chukib, zavol sari ketayotganligini bilmaydi... (O'.Hoshimov. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar").

**Maqsad**: pedagogning ikkinchi qiyofasi "shaxs" sifatidagi ko'nikma va malakalarini aniqlash va ushbu xususiyatlardan ta'lim-tarbiya ishlarida ibrat, namuna sifatida foydalanish malakalarini shakllantirish. Talaba ma'naviyatini shakllantirishda badiiylik, obrazlilik vositalaridan foydalanish.

Ushbu vaziyatni tahlil qilish uchun O'.Hoshimovning "Laylak" hikoyasidan foydalanamiz.

"Orqada kelayotgan ona nursizlanib qolgan ko'zlarini chinorga, chinor shohida qorayib turgan uyaga tikdi.

-Anavi nima o'g'lim?,-dedi to'xtab.

-Laylak oyi, laylak.

Ona yaxshi eshitmadi. Uch-to'rt qadam yurib yana to'xtab qoldi. Savatdek narsa ichida bir nima oqarib ko'rinayapti. Tavba...

-Nima o'g'lim?,-dedi yana ko'zlarini pirpiratib.

O'g'il takka to'xtadi g'ashi keldi. O'zi shoshib turibdi: Mingta ishim bor! Odam qarigandan keyin ezma bo'lib qolar ekanda, laylak, laylak deyapmanku, ko'rmayapsizmi?,-dedi jerkib va tez-tez yurib ketdi.

Yuqorida keltirilayotgan vaziyat asosida quyidagi muammoli holatlarni aniqlaymiz.

1. Biz o'z farzandlarimizning (talabalarimizning, jamoa a'zolarining) "kichik" dunyosi bilan qiziqamizmi?

2. Ularning muammosi bizni o'ylantiradimi?

3. Yoshlar (talabalar, jamoa a'zolari) ruxiyatini, pedagogik holatlarini yaxshi

bilamizmi?

4. Nima uchun farzandlar, (talabalar, jamoa a’zolari) bizning (kattalarning, pedagoglarning, rahbarlarning) ichki olamini tushunmaydi?

5. Rahbarga pedagogik-psixologik bilimlar nima uchun kerak deb o’ylaysiz?

6. Ushbu bilimlar hozirgi faoliyatingizda qanday qobiliyatlarni shakllantirishda ahamiyatli deb uylaysiz?

7. Talaba ma’naviyatiga ta’sir etuvchi qanday omillar yuqoridagi holatlarda tahlil etilgan.

**7-Topshiriq. "O’qituvchining ma’naviy qiyofasi".** Topshiriq uchta mikro guruhda bajariladi. Har bir kichik guruh o’qituvchining ma’naviy qiyofasini yaratish bo’yicha topshiriq oladi.

Birinchi guruh - eski maktab O’qituvchisining ma’naviy qiyofasi.

Ikkinchi guruh - A.Avloniyning "Turkiy guliston yoxud ahloq" asarida ta’lim-tarbiya masalalari va o’qituvchining ma’naviy qiyofasiga berilgan ta’riflar".

Uchinchi guruh - hozirgi zamon o’qituvchisining ma’naviy qiyofasi.

Talabalarga ishlashlari yengil bo’lishi uchun quyidagi reja -sxemani berish mumkin:

- tashqi ko’rinishi (kiyimi, harakatlari, jihozlar, har xil vaziyatdagi o’qituvchining siymosi, belgilari);
- o’qituvchi nutqining xususiyatlari;
- o’qituvchi ma’naviyatining faoliyatiga ta’siri;
- o’qituvchining turli vaziyatlardagi holati:
- bolalar va jamoa bilan muloqoti;
- turli vaziyatlarga va bolalarning xatti - harakatlariga va boshqalarga munosabati.

Topshiriqni bajarish jarabnida badiiy asarlarga va kinofilmlarga murojaat qilish nazarda tutiladi. Masalan: A. S. Makarenko «Pedagogik poema», S. Ayniy «Eski maktab», A. P. Chexov «Futlyar ichidagi odam», L. N. Tolstoy «Filipjon», kinofilmlardan: «Katta tanaffus», «Tutash taqdirlar», «Olovli yo’llar», «Mehrobdan

chayon», «Choliqushi» va hokazolar. Shuningdek, shaxsiy hayot tajribalaridan olingan misollar, pedagogik amaliyot davrida o'qituvchi faoliyatini kuzatish. Ushbu topshiriq asosida pedagog-talabaning kreativlik va refleksiv xususiyatlari rivojlantiriladi. Kasbiy faoliyati shakllanayotgan pallada unga kerakli sifat, xususiyat va qobiliyatlari haqidagi ko'nikma va malakalar shakllanadi.

**8 – topshiriq. "Siz qanday pedagogsiz?".**

Talabalar tarkibidan "Yomon o'qituvchi" va "Yaxshi o'qituvchi" rolida o'ynovchilar tanlanadi. Qolganlar teng ikki guruhga taksimlanadi. 'Tanqidchilar" guruhining vazifasi - "yomon pedagog"ning pedagogik talablarga javob bermaydigan - negativ holatlarini ajratib ko'rsatadilar, uning namoyon bo'lishini tasvirlaydilar. "Himoyachilariing" vazifasi - noxush holatlarni namoyon bo'lishi haqida tushuncha berish va "yomon pedagog"ga boshqa tavsifnoma berishdan iborat bo'ladi.

Shundan so'ng "qahramon" ga - "yomon pedagog" ga so'z beriladi. U eshitganlari bo'yicha fikrlarini aytadi. Fikrlarini bayon etish vaqtida vaziyatga bo'lgan emosional munosabatini ham bildiradi, o'zi ayblovga qarshi javob beradi. Unga namuna, ibrat sifatida "yaxshi pedagog" siymosi tasvirlanadi. Ushbu topshiriq asosida pedagog-talabaning refleksiv xususiyatlari rivojlantiriladi. Yaxshi pedagog va uning ma'naviy qiyofasi haqida to'liq tushunchaga ega bo'ladi. Kasbiy faoliyati shakllanayotgan pallada unda paydo bo'ladigan kamchiliklarni, o'zining bo'sh tomonlarini ongli ravishda his etishga yo'naltiradi, tanqidni to'g'ri qabul qila olish malakasi shakllanadi.

**9 - topshiriq. "Kasbiy stereotiplar va ularning ma'naviy qiyofasi".**

Bu topshiriqda pedagog o'yin ishtirokchilariga turli kasb egalarini tasvirlab, ularning ma'naviy qiyofasini tasvirlab berish taklif etadi:

talabani; psixologni (ruhshunosni); haydovchini (taksi, avtobus va h.k.);

yuristni; artistni; o'qituvchini; vrachni; sotuvchini; oshpazni; rahbarni. Talabalar o'zlarini yozganlarini o'qib berishadi. So'ngra quyidagi masalalar muhokama qilinadi:

1. Bir xildagi stereotiplar bormi?

2. Agar yo'q bo'lsa, nima uchun? Agar bor bo'lsa, nima uchun? So'ngra har bir ishtrokchi shaxsan o'ziga tegishli bo'lgan sifatlarni belgilab chiqadi. Masalan,

(talaba, ayol va erkak -o'qituvchi va hokazo).

**10-topshiriq. "Ideal (to'laqonli) o'qituvchi"** Talabalar besh guruhchaga bo'linadilar. Har bir guruhcha ideal o'qituvchini (15 tacha so'z) aks ettiruvchi sifatlarni yozib chiqishni topshiriq sifatida olishadi.

1- guruh - zamonaviy jamiyat nuqtai nazaridagi ideal o'qituvchi.

2- guruh- o'qituvchining o'zi nuqtai nazari bo'yicha.

3- guruh - maktab ma'muriyati nuqtai nazaridan.

4- guruh - zamonaviy ota - onalarning nuqtai nazaridan.

5- guruh - zamonaviy bolalar nuqtai nazaridan (bolalar yoshi talabalar yoki o'qituvchi tomonidan tanlanadi).

Topshiriqni bajarish uchun 10-15 daqiqa vaqt beriladi. So'ngra har bir guruh, o'zi yozib chiqqan sifatlarni (so'zlarni) ro'yxatini o'qib chiqishadi va har bir tanlagan sifatlarini ideal o'qituvchiga bergan tavsifnomasini tushintirib, asoslab berishadi. Bu vaqtda qolgan ishtirokchilar muhokamaga qo'shilishadi, ular bildirilgan fikrlarga qo'shilishi yoki qarshi chiqishi mumkin. Agar yozilgan tavsifnoma ko'pchilnk tomonidan qabul qilinsa, uni doskaga yozib qo'yadi. Har bir guruhcha bo'yicha ishlar tugallangach, bir guruh fikrlari boshqa guruh fikrlari bilan mos kelganligini hisoblab, xulosalar qilinadi.

**Aqliy hujum.** Ideal o'qituvchiga berilgan ta'riflar ma'naviyatli O'qituvchi sifatlariga mos keladimi yoki farqi bormi? Farqi bo'lsa izohlang.

Ushbu topshiriq asosida pedagog-talabaning kreativlik va refleksiv xususiyatlari rivojlantiriladi. Ularning shaxs ma'naviyati, ma'naviy sifatlar, mananiyatli shaxsning ijtimoiy, psixologik va pedagogik qiyofasi haqidagi tushunchalari aniqlanadi. Pedagogik sifat, xususiyat va qobiliyatlarni aniqlash ko'nikma va malakalari shakllanadi. Tahlil qilish va tanqidni to'g'ri qabul qila olish malakasi shakllanadi.

# III BOB. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHGA OID O'TKAZILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARINING TAHLILI VA SAMARADORLIGI

## 3.1. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uni o'tkazish metodikasi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga oid o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarimizda dastlab muammoning mavjud holatini o'rganishga harakat qildik, qo'lga kiritilgan dalillarni tahlil qilishga urindik. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida dastlab asoslovchi tajriba ishlarining loyihasini tuzib oldik.

Unda quyidagilarga e'tibor qaratildi:

- tashkiliy-tayorgarlik bosqichi – bunda tajriba-sinov ishlarini yo'lga qo'yish uchun tajriba maydonlari tanlandi;
- pedagogika fakulteti rahbariyatining roziligi bilan tajriba-sinov ishlarining vaqti va bosqichlari rasmiylashtirildi;
- tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda respondent – talabalar va o'qituvchilarning soni aniqlandi, ular tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayoni. Bu jarayonda quyidagilarga e'tibor qaratildi:

- tajriba ishlari uchun asos bo'ladigan ishlanmalar tayyorlandi;
- respondent – talaba va professor-o'qituvchilar hamkorligida suhbat tashkil etildi, ushbu jarayonda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalarni mazmuni, tajriba-sinovdan ko'zlangan maqsad, kutilayotgan natijalar haqida tushunchalar berildi;
- boshlang'ich ta'lim uslubiyati yo'nalishida o'qitiladigan umumiy va mutaxassislik fanlarining, shu jumladan pedagogik turkum fanlarning, shu bilan birga auditoriyadan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madanitni shakllantirish imkoniyatlari aniqlandi;

o anketa, suhbat, test savollari tuzildi hamda pedagogik kuzatish metodi yordamida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasi o'rganildi.

Asoslovchi tajriba-sinov ishlarining kuniy bosqichi. Bu bosqichda quyidagi ishlar bajarildi:

- amaliyot jarayonida aniqlangan va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasini ifodalovchi ma'lumotlar umumlashtirildi;
- ushbu ko'rsatkichlar matematik-statistik metod yordamida tahlil qilindi;
- tahlil natijalariga muvofiq xulosaga kelindi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish borasida tashkil etilgan amaliy faoliyat uchun obyekt – tajriba maydoni sifatida pedagogika fakulteti, 5111700-yo'nalishi – boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish guruh tanlandi. Tajriba-sinov maydonlarini belgilashda quyidagi omillar e'tiborga olindi:

1. Mazkur yo'nalishdagi talabalarga o'qitiladigan mutaxassisliklar yetarli ekanligi tajriba davomida aniqlandi;
2. Auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarning talaba ma'naviyatini shakllantirishdagi imkoniyatlari o'rganildi.

Pedagogika fakulteti boshlang'ich tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan talabalarning soni quyidagi ko'rsatkichni tashkil etdi:

***3.1.1-jadval***

| № | Pedagogika fakulteti | Tajriba guruhi Jami 134 nafar | Pedagogika fakulteti | Nazorat guruhi jami 134 nafar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | BTU 1-01 | 30 | BTU 1-03 | 33 |
| 2. | BTU 1-05 | 22 | BTU 1-02 | 33 |
| 3. | BTU 2-01 | 30 | BTU 1-04 | 18 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 4. | BTU 2-02 | 30 | BTU 2-03 | 32 |
| 5. | BTU 2-05 | 22 | BTU 2-04 | 18 |
| | **Jami:** | **268** | | |

Yuqorida ko'rsatilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya olayotgan talabalarning 268 nafari tajriba-sinov ishlari uchun respondent etib belgilandi. Ular maqsadli ravishda 134/134 nafar tarzda tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda pedagogik faoliyatda ushbu yo'nalishlarga dars berayotgan pedagoglarda 30 nafar ham respondent sifatida ishtirok etdi.

Pedagogika fakultetida o'qitilayotgan umumiy va mutaxassislik pedagogika fanlarining mazmunini tahlil qilishda ushbu fanlarning mundarijasidan o'rin olgan mavzularning 70 foizdan ortig'i bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga imkon beradi. Ayniqsa, "O'zbekiston tarixi", "Huquqshunoslik", "Ma'naviyat asoslari", "Madaniyatshunoslik", "Ona tili", "Ekologiya va tabiatni muhoafaza qilish", "Bolalar adabiyoti va folklor", pedagogika yo'nalishidagi "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" kabi fanlarning bu boradagi imkoniyatlari yuqori darajadidir.

Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda tajriba-sinov ishlarining mazmunan va usluban bir-birlarini to'ldirishga e'tibor qaratildi. Bundan tashqari amaliy tadbirlarning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida respondent-talabalar va o'qituvchilar imtirokida munozaralar tashkil etildi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik va shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat.

"Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanlarining bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishdagi o'rni katta. Quyida ana shu fanlarning ayrim mavzularini keltiramiz:

“Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fani bo’yicha – “Eng qadimgi yodgorliklarda inson tarbiyasiga oid fikrlar”, ““Avesto”-eng qadimgi yozma ma’rifiy yodgorlik sifatida”, “O’qituvchining shaxsiga qo’yilgan talablar”, “Barkamol shaxs tarbiyasining ma’naviy-ma’rifiy asoslari shaxs kamolotining yoshlar dunyoqarashidagi ahamiyati”, “Tarbiyaning maqsadi”, “Tarbiyaviy metodlar haqida tushuncha”, “Barkamol avlod tarbiya g’oyasini talabalar ongiga singdirishning zamonaviy axborot texnologiyalari”, “Talabalarning dunyoqarashini shakllantirish”, “Aqliy tarbiyaning vazifalari va mazmuni”, “Talaba-yoshlarning ekologik tarbiyasida ma’naviy qadriyatlardan foydalanish”, “Ma’naviy-axloqiy tarbiya va mehnat tarbiyasi”. Shuningdek, buyuk mutafakkirlarning hayoti, faoliyati hamda ularning ta’lim-tarbiyani tashkil etish borasidagi qarashlari.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani bo’yicha – “Tarbiya jarayonining mazmuni va mohiyati”, “Sinf rahbarining faoliyati”, iqtisodiy, ekologik, fuqarolik, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasining metodikalariga bag’ishlangan mavzularda bevosita bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish imkonitlari yetarli.

Shaxsni tarbilashga yo’naltirilgan pedagogik faoliyatning muhim qismi hisoblangan auditoriyadan tashqari o’tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarning bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini shakllantirishda imkoniyatlari yetarli. Ushbu tadbirlarning imkoniyati ularning talablar, istak va ehtiyojlari, ma’lum bir sharoitni mavjudligi, tadbirlarni tashkil qiladigan kishilarning layoqati, mahorati va ijodiy fikrlash qobiliyatining darajasi bilan tavsiflanadi.

Tajriba-sinov jarayonida auditoriyadan tashqari sharoitlarda uyushtiriladigan tadbirlarning imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga harakat qildik. Keyingi sahifalarda ba’zi tadbirlarning mazmuni va samaradorligi to’g’risida to’xtalamiz.

## 3.2. Tajriba-sinov ishlarining natijalari va tahlili

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda pedagogika fakultetining boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish yo'nalishining "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Pedagogika", "Psixologiya", "Defektologiya asoslari" auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlar jarayonida foydalanish imkoniyatlarini tajriba-sinovlardan o'tkazdik.

Tajriba-sinov ishlarida pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish yo'nalishida tahsil olayotgan 1-2 – kurs talabalari, fakultet professor-o'qituvchilari qatnashdilar.

Tajriba-sinov ishlarida 268 nafar boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, 30 nafar professor-o'qituvchilar qatnashdilar. Ularga quyidagi materiallar tarqatildi:

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllanganlik darajasini aniqlash so'rovnomasi (1-ilova).

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'qituvchi odobining maqsadi, asosiy vazifalari, umumiy va o'ziga xos qonuniyatlari hamda manbalariga oid berilgan test savollari (2-kurs BTU talabalari uchun) (2-ilova).

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantiruvchi omillarni o'rganish so'rovnomasi (3-ilova).

Pedagogika fakulteti professor-o'qituvchilariga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishni o'rganish so'rovnomasi (4-ilova).

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda oliy o'quv yurtidagi, aniqrog'i pedagogika fakultetidagi o'quv-tarbiyaviy jarayon kuzatildi, talabalarning hujjatlari, audtioriya va auditoriyadan tashqari o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlarning ilmiy metodik ta'minoti, boshlang'ich ta'lim yo'nalishining namunaviy dasturlari, ishchi o'quv rejalari, Davlat ta'lim standartlari va boshqa hujjatlari o'rganildi, darslar kuzatildi, tahlil qilindi, sinov mashg'ulotlari o'tkazildi.

Bo’lajak boshlang’ich ta’lim o’qituvchisining ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishni aniqlash uchun 1, 2, 3, 4-so’rovnomalar tuzildi. 1-so’rovnomada 7 ta savol, 2-so’rovnomada 4 ta savol, 3-so’rovnomada 5 ta savol, 4-ilovada 5 ta savol tuzildi va so’raldi.

1-so’rovnomadagi 7 ta savolni tuzishdi boshlang’ich ta’lim va tarbiyaviy ish yo’nalishida tahsil olayotgan talabalarning “axloq”, “ma’naviyat”, “madaniyat”, “axloq-odob qoidalari”, “kiyinish odobi” kabi tushunchalarni, bilimlarni aniqlash maqsad qilib qo’yildi.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllanganlik darajalari

*2-jadval*

| № | Tushunchalar | Tajriba guruhi 134 nafar | | Nazorat guruhi 134 nafar | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Javoblar | | | | |
| | | To’g’ri | Noto’g’ri | To’g’ri | Noto’g’ri |
| 1 | Axloq-odob tushunchasi | 60 | 74 | 34 | 100 |
| 2 | Ma’naviyat tushunchasining mohiyati | 62 | 72 | 46 | 78 |
| 3 | Bugungi talabaning ma’naviy-axloqiy qiyofasi | 70 | 64 | 54 | 70 |

Tajriba guruhining ko’pchilik talabalari axloq-oob tushunchasi quyidagi ma’noni anglatishini ta’kidlab o’tganlar:

**Axloq** – ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida inson turmushining barcha sohalarida kishining xulqi, xatti-harakatlarini tartibga solib, boshqarib turuvchi qoidalar, tamoyillar, yo’l-yo’riqlar, mezonlari, normalar, pand-nasihatlar yig’indisidan iborat. Axloq umuminsoniy va milliy xarakterga ega bo’lib, kishilarning tarixan qaror topgan va har bir odam egallashi lozim bo’lgan axloqiy ideallari, orzu-umidlari to’g’risidagi tasavvurlar, tushunchalar, bilimlar, qarashlarni o’z ichiga oladi.

**Odob –** deganda rasm-taomil, xulq-odatlar, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum taqozosi tufayli, odamlar o’rtasida paydo bo’lgan muomala-munosabatlarning xususiyatlari

tushuniladi. Odob kishilarning amaliy xatti-harakatlari, muomala-munosabatlari deb ham qaraladi. Axloq esa mazkur rasm-taomil, xulq-odatlarning bir qaror umumlashgan shakli bo'lib, ularni pand-nasihatlar, qoidalar, normalar, talablar shaklida ifodalab borilgan.

**Madaniyat** – arabcha so'zdan olingan bo'lib, madinalik, shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rgan, tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usuli.

Bugungi talabaning ma'naviy-axloqiy qiyofasi deganda – yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, jamiyatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri anglaydigan, vatanparvar, xalqparvar, tashabbuskor, tadbirkor, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, irodasi baquvvat, iymoni butun va vijdoni uyg'oq mutaxassislarni tarbiyalash, demak.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi fikrlari

***3-jadval***

| № | Omillar | Guruhlar | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Tajriba guruhi 134 nafar | | Nazorat guruhi 134 nafar | |
| | | Javoblar | | | |
| | | Ijobiy | Salbiy | Ijobiy | Salbiy |
| 1. | Axloq-odob to'g'risidagi bilimlari | 44 | 90 | 30 | 104 |
| 2. | Dars jarayonida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar | 94 | 40 | 80 | 54 |
| 3. | Auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar | 96 | 38 | 74 | 40 |
| 4. | Ommaviy-axborot vositalari | 72 | 52 | 60 | 74 |
| 5. | Oila va oilaviy an'analar | 74 | 60 | 50 | 94 |




Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllanganlik darajasiga xizmat qiladigan o'quv fanlari

***4-jadval***

| № | Guruhlar | |
|---|---|---|
| | **Tajriba guruhlari (134 nafar)** | **Nazorat guruhi (134 nafar)** |
| 1 | O'zbekiston tarixi | O'zbekiston tarixi |
| 2 | Falsafa | Huquqshunoslik |
| 3 | Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti | Ona tili |
| 4 | Tarbiyaviy ishlar metodikasi | Informatika |
| 5 | Bolalar adabiyoti | Tibbiy tayyorlov |
| 6 | Ma'naviyat asoslari. Dinshunoslik | |
| 7 | Madaniyatshunoslik | |

Tadqiqotimizni olib borish davomida yuqorida keltirilgan tajriba-sinov materiallari, so'rovnomalar, suhbatlar, ularga berilgan javoblar va bu javoblarning tahlilini umumlashtirib, tajriba-sinov ishlarida qatnashgan talabalarning savollarini va ular orqali qo'yilgan muammolarni o'zlashtirish darajalarini aniqladik.

Shakllanganlik darajalarini belgilashda uch darajaga ajratdik. Ularni “yuqori”, “o’rta”, “quyi” deb belgiladik.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish bo’yicha guruhlarga bo’linishi

***5-jadval***

| Daraja | Nazorat guruhlarida talabalardagi ma’naviy-axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasi | | Tajriba-sinovdan so’ng nazorat guruhlari talabalarida ma’naviy-axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasi | |
|---|---|---|---|---|
| | **Talabalar soni** | **% hisobida** | **Talabalar soni** | **% hisobida** |
| **Yuqori** | 44 | 32,8 | 64 | 47,8 |
| **O’rta** | 30 | 22,4 | 40 | 29,9 |
| **Quyi** | 60 | 44,8 | 30 | 22,4 |




Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish tadqiqot natijalariga ko’ra asoslandi. Bunda talabalarning so’rovnomalarga bildirgan yozma va og’zaki javoblari darajalashtirildi (yuqori, o’rta, quyi).

Talabalarning javoblarini darajalashtirish mezoni quyidagicha ifodalanadi:

- 1-guruh (yuqori daraja) ga mansub bo’lgan talabalar ma’naviy-axloqiy madaniyati shakllanganligi bilan tavsiflanadi;
- 2-guruh (o’rta daraja) ga kirgan talabalarda ma’naviy-axloqiy madaniyat tushunchalarining shakllanganligiga harakmt qilganligi xarakterlanadi;

- 2-guruh (quyi daraja) ga shunday talabalar kiritildiki, ularda ma’naviy-axloqiy fazilatlar kam shakllanganlig bilan ifodalanadi.
- Shunday qilib, tadqiqot natijalariga ko’ra bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish asosida, ushbu jarayonning ayrim jihatlariga tegishli bo’lgan ma’lumotlarni bir tizimga keltirish imkoniyatini berish o’z ifodasini topgan.

# XULOSA

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida “Agar dunyo imoratlari ichida eng ulug’i maktab bo’lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o’qituvchilik va murabbiylikdir”, deb ta’kidlagan edi. Davlatimiz rahbari aytib o’tganidek o’qituvchisi sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradi, ming-minglab murg’ak qalblarga ezgulik yog’dusini baxsh etadi, o’z o’quvchilariga hayot maktabini o’rgatadigan mo’tabar zotdir.

Respublikamizda o’qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati va kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo’yilmoqda. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Tarbiyachi ustoz bo’lishi uchun, boshqalarning idrokini o’stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiyo vatanparvar, haqiqiy fuqaro sifatida yetishtirish uchun eng avvalo, tarbiyachining o’zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo’lishi kerak”. Demak, zamonaviy o’qituvchi bo’lishi uchun – o’qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo’nalishlari bo’yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo’lishi lozim. Bu holatlar bevosita bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisi uchun ham xosdir. Olib borilgan kuzatishlarimiz, izlanishlarimiz natijasida quydagi xulosaga keldik:

1. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida odob madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligini tasdiqladi.

2. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida odob madaniyatini tarbiyalashda xalq pedagogikasi, zardushtiylik, islom ta’limotining ma’naviy axloqiy g’oyalaridan, qomusiy olimlarning fikrlaridan foydalanish o’ziga xos ahamiyatga ega ekanligiga ishonch hosil qilindi.

3. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida odob madaniyatini shakllantirishning hozirgi holati va imkoniyatlari tahlil qilindi.

4. O’quv fanlarining imkoniyatlarini o’rganish orqali “O’zbekiston tarixi”, “O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o’rganish”, “Huquqshunoslik”, “Falsafa”, “Ma’naviyat asoslari”, “Madaniyatshunoslik”, “Etika, estetika, mantiq”

hamda pedagogik turkum fanlardan “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” kabi fanlardagi qator mavzular bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida odob madaniyatini shakllantirishda muhim o’rin egallashi aniqlandi.

5. Auditoriyadan tashqari o’tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish yo’llari o’rganildi.

6. Tajriba-sinov ishlari natijalari dars va darsdan tashqari jarayonlarda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida odob madaniyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni izchil, uzluksiz, tizimli tashkil mumkinligidan dalolat beradi.

7. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida odob madaniyatini shakllantirishda pedagogik faoliyatni suhbat, tushuntirish, yo’l-yo’riq ko’rsatish, o’zaro bahslashish, nazorat kabi shakllarda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

8. Tadqiqot jarayonida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilariga ta’kidlovchi savollar bilan murojaat qilish asosida ularda odob madaniyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari ta’minlandi.

## TAVSIYALAR

1. Boshlang’ich sinf o’qituvchilari tayyorlaydigan oliy o’quv yurtlarida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida odob madaniyatini shakllantirishda tizimli yondoshuvga alohida e’tibor berish lozim.

2. “Oliy ta’lim muassasasining odob-axloq qoidalari”dan bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisining odob madaniyatini tarbiyalashda oqilona foydalanish kerak.

3. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida odob madaniyatini shakllantirishga oid dars va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni namunaviy ishlanmalari zarur.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida odob madaniyatini shakllantirishda “Boshlang’ich ta’lim” jurnali va ommaviy axborot vositalari tomonidan chop etilayotgan maqola va namoyish qilinayotgan ko’rsatuv hamda eshittirishlarda bu masalani muntazam yo’lga qo’yish kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –T.: O'zbekiston, 1992, -46 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat. 2008 y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O'zbekiston, 1999, -37 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston. 1998. -686 b.
5. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. –T.: Sharq, 1997. -63 b.
6. Bobomurodov E., Bobomurodova Sh. O'qituvchilar ma'naviyatiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish. // "Xalq ta'limi", № 2-son, 2004. 30-51 bet.
7. G'oziyev E. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): - T.: «O'qituvchi», 1994. -224 b.
8. Hafizova N.X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish texnologiyasi. 13.00.01-Pedagogika tarixi va nazariyasi. Ped.fan.nomz.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. –T.: 2011. 20 b.
9. Hasanboyev J., To'raqulov H.A., Alqorov I.Sh., Usmonov N.O'. Pedagogika. –T.: "Noshir", 2006 y.
10. Haydarova O. Pedagogik kasbiga tayyorgarlik samarasi. // "Xalq ta'limi", № 2-son, 2004. 31-33 bet.
11. Hojiyeva M. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. 13.00.01-Pedagogika tarixi va nazariyasi. Ped.fan.nomz.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. –T.: 2004.
12. Ibrohim Haqqul. Ilmni kim vositayi joh etar… // "Tafakkur" jurnali. №1. Toshkent. 2007.
13. Imomova R. Oliy maktab psixologining psixologik madaniyati. // "Xalq ta'limi", № 1-son, 2001. 51-52 bet.
14. Kamolova Sh. Shaxs ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishning axborotli texnologiyalari (bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash misolida).

13.00.01-Pedagogika tarixi va nazariyasi. Ped.fan.nomz.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. –T.: 2012.
15. Kaykovus. Qobusnoma. -T.:O'qituvchi, 1986 y.
16. Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. –T.: "O'zbekiston", 2001.
17. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. -T.:Fan, 1998 y. -133 b.
18. Musurmonova O., Qirg'izboyev A., Sharipova D., Jamoliddinova O., Yo'ldosheva S., Risqulova K. Ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish – jamiyat taraqqiyotining asosi. – T.: "Fan va texnologiya", 2012, 188 b.
19. Ochilov M. Muallim – qalb me'mori. –T.: "O'qituvchi", 2001.
20. Ochilov M., Ochilova M. O'qituvchi odobi. –T.: "O'qituvchi", 1998.
21. Ochilova N. O'qituvchi odobining talab-qoidalari. // "Xalq ta'limi", № 2-son, 1997. 27-32 bet.
22. Pedagogik atamalar ro'yxati. – T:. "Fan". 2008 y.
23. Pedagogika kursi. Tursunov I., Nishonaliyev U. -T.: O'qituvchi, 1997 y. -232b.
24. Pedagogika Mavlonova R. va boshq. – T:. O'qituvchi 2001 y, 512 b.
25. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchilar: O.Hasanboyeva. -T.: O'qituvchi, 1993 y. -206 b.
26. Pedagogika. // A.Q.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. –T.: O'qituvchi. 1996. -200 b.
27. Qurbonov Sh. Barkamol avlod orzusi. –T.: Sharq, 1998. -184 b.
28. Rasulov A. O'qituvchi shaxsining psixologik himoya mexanizmi. // "Xalq ta'limi", № 1-son, 2001. 40-43 bet.
29. Urishov Sh. O'qituvchining pedagogik madaniyati. // "Xalq ta'limi", № 2-son, 2006. 46-49 bet.
30. Uzoqov I. Boshang'ich sinf o'quvchilarida mas'uliyat hissini shakllantirishning pedagogik asoslari. 13.00.01-Pedagogika tarixi va nazariyasi. Ped.fan.nomz.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. –T.: 2011.

31. Yoshlar ma'naviyati va sog'lom turmush tarzi. p.f.d., prof. O.Musurmonova umumiy tahriri ostida. –T.: "Oydin hayot respublika sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish markazi", 2012. 274 b.
32. Zunnunov A. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. -T.:«Fan», 1996 y. -152 b.
33. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. -T.: O'qituvchi, 1997 y. -272 b.

*1-ilova*

**Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllanganlik darajasini aniqlash**

**S O' R O V N O M A S I**

Hurmatli talaba. Ushbu savollar sizning ma'naviy-axloqiy madaniyat darajangiz qanday shakllanganligini aniqlash maqsadida berilayapti. Savollarga mustaqil holda javob berishingizni so'raymiz.

1. Axloq tushunchasini qanday izohlaysiz?

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

2. Ma'naviyat tushunchasining mazmunini bilasizmi?

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

3. Sizningcha bugungi talabaning ma'naviy-axloqiy qiyofasi qanday bo'lishi kerak?

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

4. Oliy ta'lim muassasasining odob-axloq qoidalaridan xabardormisiz va unga qay darajada amal qilasiz?

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

5. Bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazasiz?

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

6. Yoshlarning kiyinish odobiga munosabatingiz?

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

7. Talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy madaniyatini yaxshilash uchun nimalar qilish kerak? Fikringizni yozing.

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

*2-ilova*

**Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'qituvchi odobining maqsadi, asosiy vazifalari, umumiy va o'ziga xos qonuniyatlari hamda manbalariga oid berilgan test savollari (2-kurs BTU talabalari uchun)**

1. O'qituvchi odobining maqsadi nimalardan iborat?

A. Bo'lajak pedagoglarni kasb axloqiga doir bilimlar bilan qurollantirish

B. Pedagogik mahorat, axloqiy ko'nikma, malakalarni egallash

C. O'qituvchining obro'sini oshirishga ko'maklashish

D. Barcha javoblar to'g'ri*

2. O'qituvchi odobining asosiy vazifalri nimalardan iborat?

A. Bo'lajak o'qituvchilaarga umuminsoniy va milliy axloqqa, kasb axloqiga, o'qituvchi odobiga doir bilim, malaka va ko'nikmalar bo'lishi

B. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy saviyasi, pedagogik, axloqiy madaniyatini oshirish

C. O'qituvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish

D. A va B javoblar to'g'ri*

3. O'qituvchi odobining o'ziga xos xususiyatlari qonuniyatlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A. Ta'lim-tarbiya jarayonini, pedagogik faoliyatni aks ettirgan asarlar

B. O'qituvchilik kasbini va bolalarni saviyasi, axloqiy pokligi, talab va odobli bo'lish*

C. Odamlar to'plangan tajribalarni yoshlarga o'rgatishi

D. Huquqiy va mehnat tarbiyasini to'g'ri tashkil etish

4. O'qituvchi odobining manbalariga nimalar kiradi?

A. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, yurtboshimizning asarlari, ma'ruzalari*

B. DTS hujjatlari, hisobotlar, buyruqlar, farmonlar

C. Turkiy xalqlarning qadimgi yodgorliklari

D. Barcha javoblar to'g'ri

*3-ilova*

**Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantiruvchi omillarni o'rganish**

**S O' R O V N O M A S I**

Hurmatli ustoz. Ushbu so'rovnoma ilmiy-tadqiqot maqsadida o'tkazilmoqda. Shu bois, savollarga xolim javob berishingizni iltimos qilamiz. Javoblar uchun oldindan rahmat.

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllanganlik darajasini qanday baholaysiz?

____________________________________________________________

____________________________________________________________

2. Siz saboq berayotgan guruhlarda talabalarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish uchun ko'proq nimalarga e'tibor berasiz?

____________________________________________________________

____________________________________________________________

3. Talabalarda odob madaniyatini tarbilashda qanday tadbirlar ko'proq samara beradi deb o'ylaysiz?

____________________________________________________________

____________________________________________________________

4. O'tkazilayotgan ma'naviyat soatlarining saviyasi, yutug'i va muammolari to'g'risidagi fikrlaringiz.

____________________________________________________________

____________________________________________________________

5. Siz yozgan darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy tavsiya, ilmiy maqolalarda-talabaning odob madaniyatini shakllantirish qay darajada yoritilgan?

____________________________________________________________

____________________________________________________________

*4-ilova*

**Pedagogika fakulteti professor-o'qituvchilariga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishni o'rganish**

**S O' R O V N O M A S I**

1. Talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda jamiyatda ijtimoiy sog'lom muhitning o'rnini izohlang.

___________________________________________________________________

___________________________________________________________________

2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda notiqlik xislatiga ega bo'lgan pedagoglarga munosabatingiz.

___________________________________________________________________

___________________________________________________________________

3. Ommaviy axborot vositalarining talabalarda odob madaniyatini shakllantirishdagi faoliyatini yoriting.

___________________________________________________________________

___________________________________________________________________

4. Talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda ota-ona, oila, oliy ta'lim muassasalarining hamkorligi qanday yo'lga qo'yilgan?

___________________________________________________________________

___________________________________________________________________

5. Talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda qanday ilg'or tajribalardan foydalanish mumkin?

___________________________________________________________________

___________________________________________________________________

**OTM:** SamDU **Fakultet:** Pedagogika
**Yo'nalishi:** Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish
**Kurs va guruh:** BT -101 **O'quv yili: 2012-2013**

| **№** | **Familiyasi, ismi, otasining ismi** | **Izoh** |
|---|---|---|
| 1 | Abdirashidov Shuhrat Bekpulatovich | |
| 2 | Abduvoitova Gulondon Lutfullo qizi | |
| 3 | Alimova Baxtigul Muhammad qizi | |
| 4 | Axadov G'olib Qobil o'g'li | |
| 5 | Axmedova Saodat Tolibjonovna | |
| 6 | Abduraxmanova Guljahon Zafarovna | |
| 7 | Begmirzayeva Nodira Xusanovna | |
| 8 | G'ulomova Olmaxon Sodiq qizi | |
| 9 | Hoshimova Mahfuza Baxrtiyorovna | |
| 10 | Isoqova Mahliyo Murotqul qizi | |
| 11 | Jo'rayeva Gulxayo Axatovna | |
| 12 | Mahammadiyeva Dilnoza Alisher qizi | |
| 13 | Mamatova Mehriniso Mo'min qizi | |
| 14 | Mamarasulova Kamola Sirliboyevna | |
| 15 | Nazarov Davron Doniyorovich | |
| 16 | Nishonova Nilyufar Zokirovna | |
| 17 | Obloqulov Vasliddin Nasrullayevich | |
| 18 | Olimova Umida Muzaffar qizi | |
| 19 | Oltinov Dilmurod Xolmurod o'g'li | |
| 20 | Qarshiboyeva Barno Xo'rozovna | |
| 21 | Qudratova Gulnoza Qaxramon qizi | |
| 22 | Ro'ziyeva Diyora Abdullayevna | |
| 23 | Saitqulova Noila Axmat qizi | |
| 24 | Shermamatova Dildora Sadriddin qizi | |
| 25 | Shodiyeva Shohista G'ayratovna | |
| 26 | Tirkasheva Gulyora Ilxom qizi | |
| 27 | Xasanova Ra'no Akbar qizi | |
| 28 | Xoliqova Iroda Hasanovna | |
| 29 | Xoshimova Maftuna O'ktam qizi | |
| 30 | Yuldosheva Gulnora Olim qizi | |

**Fakultet dekani :** **dots. T.I.Qurbonov**

**OTM:** SamDU **Fakultet:** Pedagogika
**Yo'nalishi:** Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish
**Kurs va guruh:** BT -102 **O'quv yili: 2012-2013**

| № | Familiyasi, ismi, otasining ismi | Izoh |
|---|---|---|
| 1 | Namozova Manzura Furkatovna | |
| 2 | Eliboyeva Noila Turdiboy qizi | |
| 3 | Kasimova Sevara Doniyorovna | |
| 4 | Anorova Soxiba Baxtiyor qiz | |
| 5 | Umurzakova Maftuna Kazakboy qizi | |
| 6 | Uzoqbayeva Maftuna Alimkulovna | |
| 7 | Yaxshiboyeva Dildora Jumaniyozovna | |
| 8 | Raximova Nasiba Ilxom qizi | |
| 9 | Rustamova Zamira Elomonovna | |
| 10 | Xasanova Mamlakat Xojimaxmatovna | |
| 11 | Obidova Sarvinoz Farxodovna | |
| 12 | Rajabova Gullola Abdujabbor qizi | |
| 13 | Ibragimova Aziza Abulkasimovna | |
| 14 | Mamadullayeva Dildora Keldiyor qizi | |
| 15 | Muxtorova Dilobar Ixtiyor qizi | |
| 16 | Raxmankulov Bahodir Xubbimovich | |
| 17 | Xaydarova Navbahor Baxtiyor qizi | |
| 18 | Abdujabborova Muxay Bahronovna | |
| 19 | Yovqochova Muxayyo Xayri qizi | |
| 20 | Qabulova O'g'iloy Tog'aymurotovna | |
| 21 | Ochilova Maftuna Jamoliddin qizi | |
| 22 | Xamidov Xurshid Mirzamurod o'g'li | |
| 23 | Suvonova Sitora Ne'matullayevna | |
| 24 | Suyunova Nargiza O'ktam qizi | |
| 25 | Aminjonova Zarnigor Xurshed qizi | |
| 26 | Burxonova Rayxona Erkinovna | |
| 27 | Aktamonova Larisa Xalilovna | |
| 28 | Alimova Shoxsanam Zafarjon qizi | |
| 29 | Qoraboyeva Yulduz Xamdamovna | |
| 30 | Suvonova Risolat Ne'matullayevna | |
| 31 | Isomov Husniddin Qamariddin o'g'li | |
| 32 | Mamarasulova Farida Mansur qizi | |

**Fakultet dekani :** **dots. T.I.Qurbonov**

**OTM:** SamDU **Fakultet:** Pedagogika
**Yo'nalishi:** Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish
**Kurs va guruh:** BT -103 **O'quv yili: 2012-2013**

| № | Familiyasi, ismi, otasining ismi | Izoh |
|---|---|---|
| 1 | Adilova Gulchexra Sunatillayevna | |
| 2 | Xoliqova Surayyo Tolmas qizi | |
| 3 | Gaimova MaftunaUktamovna | |
| 4 | Xolmatov Javohir Yusupovich | |
| 5 | Najmiddinova Gulbahor Najmiddin qizi | |
| 6 | Xolmuratova Charos Mitanboy qizi | |
| 7 | Faxritdinova Zarnigor G'ayratovna | |
| 8 | O'rozov Sherali Abdusaidovich | |
| 9 | Bahromova Yulduz Farhodjon qizi | |
| 10 | Eshonqulova Yorqonoy Abdumalik qizi | |
| 11 | Ikromova Munisa Erdanboyevna | |
| 12 | Butayeva Maftuna Shodmon qizi | |
| 13 | Axmedova Lola Xudoykulovna | |
| 14 | Xo'jamov Qodir Alimboyevich | |
| 15 | Saitova Shaxnoza Mamasaitovna | |
| 16 | Halimova Muqaddas Abdusami qizi | |
| 17 | Gulyamova Nigina Azimovna | |
| 18 | Xoliyev Jasur Norqul o'g'li | |
| 19 | Mamatkulov Alipolvon Islomqulovich | |
| 20 | Baxramova Nilufar Ural qizi | |
| 21 | Abduvaliyeva Gavhar Boytemir qizi | |
| 22 | Narzikulova Nigora Alimqulovna | |
| 23 | Baxtiyorov Dilshod Baxtiyorovich | |
| 24 | Xasanova Ximmatoy Abduravupovna | |
| 25 | Qudratova Durdona Abdurazzoqovna | |
| 26 | Omonova Mutabar Abdumannon qizi | |
| 27 | Umrboyeva Maxbuba Ravshanovna | |
| 28 | Safarova Gulbaxor Asliddin qizi | |
| 29 | Onorboyev Nuriddin O'ktam o'g'li | |
| 30 | Yuldosheva Gulxayo Xursandovna | |
| 31 | Akaboyeva Kamola Raximovna | |
| 32 | Saidova Qunduz Suyunboy qizi | |

**Fakultet dekani :** **dots. T.I.Qurbonov**

**OTM:** SamDU **Fakultet:** Pedagogika
**Yo'nalishi:** Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish
**Kurs va guruh:** BT -201 **O'quv yili: 2012-2013**

| № | Familiyasi, ismi, otasining ismi | Izoh |
|---|---|---|
| 1 | Suvanova Matluba Baxridinovna | |
| 2 | Allayorova Nigora Ikramovna | |
| 3 | Mixliyeva Munojat Mamasodiqovna | |
| 4 | Turdiyev G'ofur Ixtiyorovich | |
| 5 | Nazarova Fazilat Abbosovn a | |
| 6 | Yangiboyeva Gulxayo Kulmuxammad qizi | |
| 7 | Arabova Adolat Tirkashovna | |
| 8 | Turayeva Madina A'zamjonovna | |
| 9 | Quzibayeva Xurshida Abdqodirovna | |
| 10 | Tursunova Lobar Tolibjon qizi | |
| 11 | Sadinova Orzigul Asatullo qizi | |
| 12 | AbduraxmonovaIroda Doniyorovna | |
| 13 | Rustamov Tursunpulot Almat o'g'li | |
| 14 | Rayimqulova Mohinur Jamshid qizi | |
| 15 | Xolmo'minova Ozoda Ozodbek qizi | |
| 16 | Nomozova Umida Ibodulla qizi | |
| 17 | Karshiboyeva Fazilat Kamolovna | |
| 18 | Mardonova Dilsora Akrom qizi | |
| 19 | Abdukaxxarova Maftuna Abduraxim qizi | |
| 20 | Abdakimova Zebiniso Aktamqulovna | |
| 21 | Baxronova Aziza Mo'min qizi | |
| 22 | Tadjiyeva Yulduz Muxitdinovna | |
| 23 | Abdullayeva Nodira Atamuratovna | |
| 24 | Otamurodova Zamira Suyarovna | |
| 25 | Mahmudova Diyora Farxod qizi | |
| 26 | Ismailova Nodira Shermatovna | |
| 27 | Fayzullayeva Maftuna Sodiq qizi | |
| 28 | Nurillayeva Sarvinoz Xayrullo kizi | |
| 29 | Jo'raqulova Shaxnoza Aslanovna | |
| 30 | Sirojiddinova Shaxnoza Shavkiyevna | |
| 31 | Turdibekova Malika Xamrayevna | |

**Fakultet dekani :** **dots. T.I.Qurbonov**

**OTM:** SamDU **Fakultet:** Pedagogika
**Yo'nalishi:** Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish
**Kurs va guruh:** BT -202 **O'quv yili: 2012-2013**

| № | Familiyasi, ismi, otasining ismi | Izoh |
|---|---|---|
| 1 | Esanova Sarvigul Abdullayevna | |
| 2 | Gafurjonova Ruxsora Raufovna | |
| 3 | Muqimova Nargiza Sagdullo qizi | |
| 4 | Beknazarova Ma'mura Tolibboy qizi | |
| 5 | Xalilov Esonali Kaytarovich | |
| 6 | Musurmonova Rushana Asadullo qizi | |
| 7 | Xudoyberdiyeva Sarvinoz Xolbekovna | |
| 8 | Zayirova Guzal Ibragimovna | |
| 9 | Turg'unboyev Baxrom Ravshanovich | |
| 10 | Xamrayeva Nigora Normo'minovna | |
| 11 | Baxtiyorova Oltinoy Shuxrat qizi | |
| 12 | Xukulova Munira Sultonmurodovna | |
| 13 | Ibragimova Ma'mura Abdug'ani qizi | |
| 14 | Ergasheva Oyshirin Jo'rayevna | |
| 15 | Saidmurodova Maftuna Alisher qizi | |
| 16 | KayumovaDildora Shermuxammatovna | |
| 17 | Sayfiyeva Bonigul Raximjonovna | |
| 18 | Azimova Madina Sirojiddin qizi | |
| 19 | Mamaraximova Sarvinoz Toshtemir qizi | |
| 20 | Norkulova Shaxnoza Shokirovna | |
| 21 | Rashidova Sadoqat Rustam qizi | |
| 22 | Muxammadiyeva Nafisa Muxtadinjonovna | |
| 23 | Xaydarova Madina Amirovna | |
| 24 | Xakimova Ro'zigul Ziyadinovna | |
| 25 | Jo'rakulov G'ulomboy Jabborovich | |
| 26 | Xamidova Baxtigul Baxtiyor qizi | |
| 27 | Gozibekov Shavkat Musurmonovich | |
| 28 | Xalimova Ra'no Berdiyorovna | |
| 29 | G'ozibekov Xurshid Baxodir o'g'li | |
| 30 | Do'stmurodova Fazilat Nuriddin qizi | |

**Fakultet dekani :** **dots. T.I.Qurbonov**

**OTM:** SamDU **Fakultet:** Pedagogika
**Yo'nalishi:** Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish
**Kurs va guruh:** BT -203 **O'quv yili: 2012-2013**

| № | Familiyasi, ismi, otasining ismi | Izoh |
|---|---|---|
| 1 | Ochilova Naima Xusan qizi | |
| 2 | Nurmatova Nodira Oblakulovna | |
| 3 | Islamova Gulmira G'ulomjon qizi | |
| 4 | Yarbekov Umar Bemamatovich | |
| 5 | Rabbimova Dilafro'z Mexriddin qizi | |
| 6 | Faxritdinova Dilrabo G'ayratovna | |
| 7 | Davronova Zamira Sharifboy qizi | |
| 8 | Mardimbayeva Feruza Zarifovna | |
| 9 | Dusmanova Maxbuba Bekbutayevna | |
| 10 | Shukurova Shaxnoza Shukurovna | |
| 11 | Xalilova Noila Akbaraliyevna | |
| 12 | Tuychiyeva Gulxayo O'ktam qizi | |
| 13 | Eshqobilova Fazilat Shavkatovna | |
| 14 | Xalimova Zulfiya Keldiyarovna | |
| 15 | Oripova Nasiba Oripovna | |
| 16 | Salimova Xolnisa Usan qizi | |
| 17 | Xasanova Gulasal Ximmat qizi | |
| 18 | Bazarova Zarnigor Obidovna | |
| 19 | Abdixamitova Dildora Abdixamit qizi | |
| 20 | Jangirova Shaxnoza Xudoyberdi qizi | |
| 21 | Xojimullayeva Dilfuza Nuraliyevna | |
| 22 | Kuvatova Nargiza Turakulovna | |
| 23 | Eliboyev Murodulla Turdiboy o'g'li | |
| 24 | Suvanov Musurmankul Safarovich | |
| 25 | Xakimov Shoxboz Odiljonovich | |
| 26 | Suyunov Srojiddin Xaytmurodovich | |
| 27 | Jabborova Zero Raxmatjonovna | |
| 28 | G'obborova Odina Xoliq qizi | |
| 29 | Usmonov Davron Umarovich | |
| 30 | Toxirova Oysha Uchqun qizi | |

**Fakultet dekani :** **dots. T.I.Qurbonov**